



Innovative Academy
Research Support Center

10(10)



**ZAMONAVIY DUNYODA
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA:
NAZARIY VA AMALIY IZLANISHLAR
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

innacademy.uz

[zenodo](https://zenodo.org)



[OpenAIRE](https://openaire.org)





**«INNOVATIVE ACADEMY» ILMIY TADQIQOTLARNI
QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY
VA AMALIY IZLANISHLAR»NOMLI № 10-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5802007>

OpenAIRE



zenodo



innacademy.uz

**«ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY VA
AMALIY IZLANISHLAR» NOMLI № 10-SONLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN
KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RSIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE ACADEMY RSC» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (EJAR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 1415-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 2181-2020, WWW.INNACADEMY.UZ VEB SAYTI) «ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA: NAZARIY VA AMALIYIZLANISHLAR» NOMLI ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI E'LON QILINADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. PEDAGOGIKA (TURLARI BO'YICHA)
2. PSIXOLOGIYA FANLARI
3. FILOLOGIYA
4. ADABIYOTSHUNOSLIK
5. LINGVISTIKA

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

| | | |
|----|---|----|
| 1 | ILK BOLALAR BOG'CHASI O'ZBEKISTONDA Dildora Nurova Mamadjonovna | 1 |
| 2 | MAKTAB YOSHGACHA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI Surayyo Mahmudjonovna | 5 |
| 3 | BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi | 7 |
| 4 | THE USE OF MODERN TECHNOLOGISTS IN THE STUDY OF ENGLISH QOBILOV SHAHZOD JAMOLITDIN O'G'LI 1 , ABDURAKHIMOV BOBURJON FOZIL O'G'LI 2 , Khiloliddin Absalomov 3 | 10 |
| 5 | РАЗВИТИЯ НАГЛЯДНО-ОБРАЗНОГО МЫШЛЕНИЕ У СТАРШЫХ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕСС ОЗНАКОМЛЕНИЯ С ПРИРОДОЙ Якубова Гульназ Маримбаевна | 13 |
| 6 | BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIIYA FANINI O'QITISHDA AJDODLARIMIZ MEROSIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Dilfuza Kulchayeva | 16 |
| 7 | THE USE OF ICT IN EDUCATION AND ITS ROLE AND IMPORTANCE IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE BERDIYAROVA SHOHIDA MARDON QIZI 1 , IBODULLOYEVA OZODA ISMOILJON QIZI 2 , Khiloliddin Abdusalomov | 19 |
| 8 | BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK QOBILIYATI ELEMENTLARINI SHAKILLANTIRISH Xazratqulov Yashnarbek | 22 |
| 9 | BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA GEOMETRIK MATERIALLAR HAQIDA TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH ZILOLA ISAKOVA SHAMSIDDIN QIZI | 26 |
| 10 | N ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYA BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI MO'MINOVA GULIZODA ZIYOD QIZI | 29 |
| 11 | WHY SHOULD WE TEACH GRAMMAR? TASHPULATOVA ZILOLA ERKINOVNA | 32 |
| 12 | O'SMIRLARNI MANIPULYATSION TA'SIRLARDAN PSIXOLOGIK HIMOYA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ILMIY RAHBAR: NAZAROV AKMAL MARDONOVICH FAYZULLOYEVA MOHINUR SA'DULLO QIZI | 35 |
| 13 | O'SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK TAMOYILLARI ILMIY RAHBAR: SH.R.BARATOV ABDULLAYEV SHAHZODJON ZOKIRJONOVICH | 39 |
| 14 | VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI BARNOYEVA YULDUZ RASULOVNA | 43 |
| 15 | TAVAKKAL XULQ - ATVORNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI TA'SIRI NARZULLOYEVA SALOMATBONU SUNATULOYEVA | 46 |
| 16 | SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS NOZIMOV JAKHONGIR TOKHIROVICH ACADEMIC LEADER: M.N. USMANOVA | 49 |
| 17 | BO'LAJAK PSIXOLOGLARINING MATEMATIK KOMPETENTLIGINI | 52 |

| | | |
|----|--|----|
| | OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TOXIROVA NASIBA KOBILOVNA | |
| 18 | KOMPYUTER O'YINLARIGA TOBE OSMIRLARNI ORGANISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI TO'RAYEVA ZEBUNISO ILMIY RAHBARI: G.D.XUDOYQULOVA | 55 |
| 19 | AMERIKA PSIXOLOGIYA MAKTABI NAMOYONDALARINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARINING OZIGA XOS JIHLTLARI AXROROV PAXLAVON QAHRAMONOVICH ILMIY RAHBAR: D.M.NURALIYEVA | 59 |
| 20 | KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA ART TERAPIYA ORQALI TASAVVUR VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ILMIY RAHBAR: NAZAROV AKMAL MARDONOVICH MUXAMEDOVA MUHAYYO KARIMOVNA | 62 |
| 21 | THE ROLE OF SPEAKING ACTIVITIES IN ENGLISH TEACHING Kambarova Diloram Yusupovna | 65 |
| 22 | IMPORTANCE OF LESSON PLANS IN TEACHING PROCESS. XAYDAROVA NIGINA GANIYEVNA | 68 |
| 23 | БЫЯВЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ РЕЧЕВОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ В ПЕРИОД АДАПТАЦИИ К УСЛОВИЯМ ДЕТСКОГО САДА ШАРИПОВА ДИЛБАР ГУЛЯМОВНА 1 ХИКМАТОВА ДИЛРАБО ПУЛАТОВНА | 71 |
| 24 | BUGUNGI ZAMOAVIY HAYOTDA INSON EMOTSIYASINING ROLI VA VAZIFALARI NAVJONOV OTABEK 1 SHAVKATOVA SHAHNOZA 2 | 73 |
| 25 | БОЛАЛАРНИНГ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИГА МОСЛАШИШ ДАВРИДА ФАОЛИЯТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ АНИҚЛАШ САФАРОВА ЗУЛФЕРА ТЕШАЕВНА | 76 |
| 26 | LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNING NUTQDAGI O'RNİ MAMADJANOVA NARGIZA MAHMUDJANOVNA | 78 |
| 27 | “МИНЕРАЛ ЎФИТЛАРНИНГ ИРРИГАЦИЯ ЭРОЗИЯСИГА УЧРАГАН ТУПРОҚЛАРИ ЮВИЛИБ ТУШГАН ҚИСМИДА ТАКРОРИЙ МОШНИНГ ЎСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ” ҒОҒУРОВ ДИЛШОД УМАРАЛИЕВИЧ, ҲАЙДАРОВА ДИЛСЎЗ САЙҒУЛЛАЕВНА | 80 |
| 28 | BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING O'RNİ VA UNDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI KURBANOVA SHOIRA NARZULLAYEVNA 1 RAZZOQOVA NOSIRA BAXROMQUL QIZI 2 | 84 |
| 29 | ПРОИЗВОДСТВЕННЫЙ РОМАН. ТЕОРИИ И ПРОБЛЕМЫ ЖАНРА HEMATULLAЕVA KAMILLA AXMADOVNA | 89 |
| 30 | INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEMPORAL SINTAKSEMALARNING ADVERBIAL VARIANTLARI SUNNATOVA MAFTUNA AKBAR QIZI | 92 |
| 31 | DIQQAT BARQARORLIGI VA DIQQAT BUZILISHLARI HAMDA UNING BELGILARI PARDAYEVA MAFTUNA BAXTIYOR QIZI | 95 |

ILK BOLALAR BOG'CHASI O'ZBEKISTONDA

Dildora Nurova Mamadjonovna

**Toshkent shahar Chilonzor tumani 462 DMTT 1- tayyorlov guruhi
tarbiyachisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6279320>

O'lkamizda XIX asrning 80-90-yillariga kelib maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizimini vujudga keltirish g'oyalari yetila boshlandi. O'sha davrda yashab ijod etgan ma'rifatparvar mahalliy ziyolilar ayollarning og'ir ahvoli va bolalar nazoratsizligini e'tiborga olib, bu masalaning yechimini izlay boshlaydi. Jumladan, 1872 yilda Turkistonda tuzilgan «Jamiyati xayriya» tarkibiga kirgan ziyolilar vakillari tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, ilk tug'uruqxonalar bilan bir qatorda, ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalar (dastlabki bolalar uylari) tashkil etildi. Butun Turkiston bo'yicha 150-200 nafar bolani qamrab olgan ushbu yetimxonalarda ham yasli yoshidagi, ham maktab yoshidagi bolalar tarbiyalangan.

Bolalar bog'chasi — maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni tarbiyalovchi muassasa. Birinchi marta 1837-yil Germaniyada nemis pedagogi F. Frebel tomonidan tashkil etilgan. Bolalar bog'chasi xalq ta'limi tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblanadi.

O'zbekistonda odatdagi Bolalar bog'chasi 3—7 yoshli bolalarga mo'ljallangan. 2 oylikdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanadigan yaslibog'chalar ham bor. Bundan tashqari sog'lomlashtirish bog'chalari, jismoniy va aqliy nuqsonli bolalar uchun bog'chalar, uybog'cha, mavsumiy bog'chalar (asosan qishloq xo'jaligi ishlari ko'paygan vaqtda tashkil etiladi), "bolalar bog'chasi maktab" majmui ham mavjud. Bolalar bog'chasi hokimiyatning ijroiya organlari tomonidan tuman, shahar, muassasa, korxonada tashkil etiladi. Bolalar bog'chasi qaysi tashkilot qaramog'ida bo'lishidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi uni kadrlar bilan ta'minlaydi va faoliyatiga ilmiy pedagogik jihatdan rahbarlik qiladi. O'zbekistondagi bog'chalarda bolalarga chet tillari, xoreografiya, tasviriy va musiqiy san'at, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etilgan. 2000-yil O'zbekiston Respublikasida 6742 Bolalar bog'chasi ishladi, ularda 608 ming 500 bola tarbiyalandi. Bog'chalar ochilishi ko'plab oilalarga qulaylik va osonlikni yaratib berdi¹.

1891 yilda «Bog'dorchilik» jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun «Bolalar maydonchasi» ko'rinishida birinchi bolalar bog'chasi ochilgan. Bolalar bog'chasi uchun istirohat bog'i hududidan sersoya joy ajratib berilgan bo'lib, bu yerda arg'imchoqlar, qayiqdar o'rnatilgan, turli o'yinchoqlar tayyorlangan. Bundan tashqari, maydonchada kattagina gulzor tashkil etilib, bu yerda bolalar o'simliklarni parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan. Ammo 1891 — 1903 yillar mobaynida mablag' taqchilligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan.

1896 yilda Turkistonda vasiylar kengashi kambag'allarning bolalari uchun «yasli»lar deb ataladigan muassasalarni tuza boshladi. Yasli ishlarini nazoratchi-uslubchi ayol boshqargan, shuningdek, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasalarda bolalarga o'qish, yozish, sanash bilan bir qatorda, talay hunarlar ham o'rgatilgan.

Biroq, butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50—60 nafar boladan oshmagan.

¹ «BOLALAR BOG'CHASI» O'zME. Birinchi jild Toshkent 2000-yil,



Bolalarda maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha ham tashkiliy, ham mazmun jihatidan ko'p ishlar qilinmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-may kuni hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalari qamrovini kengaytirish masalalari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Xususan, oxirgi to'rt yilda bog'chalar soni 5 ming 200 tadan 18 ming 300 taga oshdi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobar ortib, 60 foizga yetdi. Davlat tomonidan berilgan imkoniyat va imtiyozlar natijasida xususiy va oilaviy bog'chalar ham ko'paydi. Bugungi kunda barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida 1 million 700 ming nafar bola tarbiyalanmoqda.



Lekin, bu ishlar hali yetarli emas. 53 ta tumanda bog'chalar yetishmaydi. Masalan, Surxondaryo viloyatining Bandixon, Denov, Qumqo'rg'on, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Qamashi va Kitob, Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanlarida qamrov darajasi juda past.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda sohadagi shu kabi kamchiliklar ko'rsatib o'tildi. Ularni bartaraf etish, maktabgacha ta'lim qamrovi va sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Mazkur 53 ta tumanda 34 ming o'rinli 2 mingta oilaviy bog'cha tashkil etish choralari belgilandi. Bunday bog'chalarga qo'shimcha ishchi yollashga ruxsat berib, qabul qilinadigan bolalar sonini ikki barobar oshirish taklifi ma'qullandi.

Davlatimiz rahbari asosiy ta'lim-tarbiya mazmuni ekanini ta'kidlab, oilaviy bog'chalarga o'quv qo'llanma va metodik materiallarni bepul yetkazib berish vazifasini qo'ydi. Buning uchun davlat tomonidan jami 30 milliard so'm ajratiladi. Shuningdek, bunday muassasalarni zarur jihozlar bilan ta'minlash uchun 5 foiz stavkada 30 million so'mgacha imtiyozli kreditlar beriladi.

Olis hududlarda maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirishning yana bir manbasi – davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalardir. Bugungi kunda bunday muassasalarda bir bola uchun 50 foiz xarajatlar subsidiya qilib kelinmoqda.

Yig'ilishda ushbu subsidiya miqdorini 75 foizga yetkazish, xususiy bog'chalarning elektr energiyasi va tabiiy gaz to'lovining 50 foizini davlat byudjetidan qoplash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, pandemiya sababli to'liq quvvatda ishlamagan davlat-xususiy sheriklik bog'chalarning kreditlari bo'yicha asosiy qarz to'lovi muddati ham yil yakuniga qadar uzaytirildi.

Davlat tomonidan yangi bog'chalar qurish ishlari ham davom ettirilmoqda. 2021-2022-yillarda 23 ta tumanning olis va chekka hududlarida 50 ta maktabgacha ta'lim muassasasi barpo etish rejalashtirilgan. Buning uchun qamrov darajasi eng past va bolalar soni 250 tadan oshgan 50 ta mahalla tanlab olingan.



Prezidentimiz ushbu bog'chalarni ilg'or xorijiy tajriba asosida qurish, zamonaviy jihozlar va qo'llanmalar bilan ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining 12 ming nafar xodimini o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi belgilandi.

O'z faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'ygani uchun maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari lavozimidan ozod etildi. Vazirning boshqa o'rinbosarlari hamda vazirlikning barcha

hududiy boshqarmalari boshliqlari o'z vazifasini bajaruvchi darajasiga tushirildi. Ularning o'z lavozimiga loyiqligi keyingi faoliyati natijadorligi tahlili asosida ko'rib chiqilishi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “ BOLALAR BOG'CHASI” O'zME. Birinchi jild Toshkent 2000-yil.
2. <http://darakchi.uz/oz/76645>

MAKTAB YOSHGACHA BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Surayyo Mahmudjonovna

Toshkent shahar Chilonzor tumani 462-DMTT 3-tayyorlov guruh
tarbiyachisi Ziyayeva

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6279386>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshgacha bolalarining jismoniy rivojlanishi xususiyatlari haqidagi fikrlar yoritib berilgan

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, maktab yoshdagi bolalar, akseleratsiya, nafas olishi, jismoniy mashqlar, aqliy rivojlanish.

O'sayotgan organizmning jismoniy rivojlanishini o'z vaqtida dinamik ravishda kuzatib borish o'sish va kamolotning individual xususiyatlarini aniqlash uchun zarurdir. Bolaning o'sishi va rivojlanishi davrida RFdagi siljishlar, ayniqsa noqulay omillarga uzoq vaqt ta'sir qilish bilan, patologik jarayonlarga osongina aylanishi mumkin. Jismoniy rivojlanish atrof-muhit omillari ta'siri ostida genotipik ma'lumotlar fenotipik namoyon bo'lganda ontogenezning ma'lum bosqichlarida tananing o'sishi va rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi davrda salomatlik va to'liq jismoniy rivojlanish poydevori qo'yiladi. Eng umumiy ma'noda, maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy rivojlanishi - bu individual hayot davomida uning tanasining tabiiy morfologik va funktsional xususiyatlarini o'zgartirish jarayoni. Jismoniy rivojlanishning tashqi miqdoriy ko'rsatkichlari, masalan, fazoviy o'lchovlar va tana vaznining o'zgarishi, sifat jihatidan jismoniy rivojlanish, birinchi navbatda, yosh rivojlanish davrlari va bosqichlarida tananing funktsional imkoniyatlarining sezilarli o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Individual jismoniy sifatlarning o'zgarishi va jismoniy faoliyatning umumiy darajasida ifodalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tananing yetarli darajada barqarorligi va cheklangan vosita qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Ular asab tizimini tezda rivojlantiradi, skelet o'sadi, mushak tizimi mustahkamlanadi va harakatlar yaxshilanadi. 3-4 yoshli bolalar tananing umumiy statik beqarorligi va cheklangan dinamik qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Bu yoshdagi bolalarda tananing yuqori qismi va yelka-kamar mushaklari va bukuvchi mushaklar nisbatan katta rivojlangan.

3-4 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar katta mushak guruhleri ishtirok etadigan harakatlarni muvofiqlashtirishning yetarli emasligi bilan yuqori vosita faolligiga ega. Ushbu davrda charchoqning kuchayishi, bir xil holatni uzoq vaqt saqlab turish va bir xil turdagi harakatlarni bajarish bilan qayd etiladi. O'pka to'qimalarining tuzilishi hali to'liq rivojlanishga erishmagan; burun yo'llari, traxeya va bronxlar nisbatan tor, bu o'pkaga havo kirishini biroz qiyinlashtiradi; qovurg'alar bir oz moyil, diafragma baland va shuning uchun nafas olish harakatlarining amplitudasi kichik. Bola kattalarga qaraganda yuzaki va tez-tez nafas oladi: 3-4 yoshli bolalarda nafas olish tezligi daqiqada 30, 5-6 yoshda - daqiqada 25; kattalarda -16-18. Bolalarda sayoz nafas olish nisbatan yomon ventilyatsiya va ba'zi havo turg'unligiga olib keladi va o'sayotgan organizm to'qimalarga kislorod yetkazib berishni ko'paytirishni talab qiladi. Shuning uchun, gaz almashinuvi jarayonlarini faollashtiradigan toza havoda jismoniy mashqlar ayniqsa muhimdir.

Zamonaviy bolalar 15-20 yil oldingi tengdoshlariga qaraganda o'rtacha uzunroq, jismoniy va aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan. Fanda bu hodisa "akseleratsiya" deb ataladi. Ammo, maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va aqliy jihatdan tezroq rivojlanishiga qaramay, uning yoshga bog'liq xususiyatlari fikrlashning o'ziga xos xususiyatlarida, taqlid qilish tendentsiyasida, hissiylik va ta'sirchanlikni oshiradi. Bolalarning jismoniy rivojlanishining yosh xususiyatlarini bilish, u yoki bu ko'rsatkichning majburiy yoki bir tomonlama rivojlanishini istisno qilgan holda, bolalarning uyg'un jismoniy rivojlanishi masalasiga yaxlit yondashish imkonini beradi.

Maktab yoshdagi bolalarni jismoniy o'zgarishlarini vaqtida aniqlay olish va kuzatish biz kattalarning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Физическое воспитание детей раннего и дошкольного возраста, Татьяна Ким, Педагогика, 2015 г.
- 2.<https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarining-jismoniy-rivojlanishining-osish-suratlarini-qiyosiy-baholash>

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMİY-NAZARIY ASOSLARI

Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi

GulDU ta'li va tarbiya nazariyasi

Va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6279395>

Kompetensiya – fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetentlilik –lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor degan ma'noni ifodalaydi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim–o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

1.Kommunikativ kompetensiya - ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

2.Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

3.O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va

huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

5. Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiyani boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish juda muhimdir. Kommunikativ kompetensiyada boshlang'ich sinf o'quvchisining muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirish ham o'z o'rniga ega.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasida ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborotlar bilan ta'minlashni rivojlantirish uchun texnika va texnologiyani bilish va ulardan foydalana olish, funksiyalari va strukturasi bilishi, texnologiyalarini joriy eta olishi talab qilinadi. Zamonaviy sharoitda shaxs tomonidan ozlashtiriladigan axborotlarning asosiy manbalari - davriy matbuot (gazeta, jurnal va b.), audiovisual ommaviy axborot vositalari (radio, televideniya), ovozi va video yozuvlar, axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter tizimi, internet), reklama va hokazolar sanaladi. Ushbu axborot manbalari bilan to'g'ri ishlashni o'rganish uchun ham axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishimiz lozim.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini egallash ham boshlang'ich sinflarda muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, bola bilimga qiziqmasdan turib, o'qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Bolada o'z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o'qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag'batlantirish, ayniqsa, ahamiyatlidir. Boladagi o'qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg'otishga va mustaqilligi kamol topishga olib keladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga ishtiyoqi hisoblanadi. Kechaga tayyorgarlik ko'rish, shanbaliklarda ishtirok etish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatlarini, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta'sir kuchiga ega. Chunki, o'qituvchilik qobiliyati juda ko'p sifatlarni: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala, nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq temperament, oqil va

adolatlilik namunasi, alohida nazokat, sipolik va vazminlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida o'quv mehnatiga ongli munosabatda bo'lishlik ta'limning ijtimoiy, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon.T. 2016 yil 7 fevral
2. Usmonov N., Xolboyeva G. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limda kompetentlikni rivojlantirish omillari. Toshkent. "Fan va texnologiya", 2016. 152 bet
3. Rustamova N. Media ta'lim va media madaniyat (umumiy o'rta ta'lim muassasalari misolida). Toshkent. "Turon zamin ziyo". 2016. 131 bet.

THE USE OF MODERN TECHNOLOGISTS IN THE STUDY OF ENGLISH

Qobilov Shahzod Jamolitdin o'g'li¹, Abdurakhimov Boburjon Fozil o'g'li²,
Khiloliddin Absalomov³

¹ 2nd Stage Student of Samarkand Institute of foreign languages foreign
language and literature (evening),

² 2nd Stage Student of Samarkand Institute of foreign languages foreign
language and literature (evening),

³ Scientific leader

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6279423>

Annotation: The use of mass media and technology has come out of the traditional method of lecture from the teacher and the use of students in learning and teaching English as a foreign language through the mass media is today one of the easiest and most effective methods in learning foreign languages. This approach will not only simplify the process of obtaining knowledge from students, but also make them an interesting occupation. The use of media materials, audio-formatted texts, dialogues, listening to podcasts, films with a variety of subtitles from visual materials, allows students to compare the topics discussed in the English language with the help of an image that they can compare and learn through real English human pronunciation. In this article, the views on the role and importance of learning and teaching English through mass media materials will be discussed in the case of using modern technology in teaching English as a foreign language.

Keywords: English, media, technology, visual materials, audio materials, News programs, articles, podcasts.

It gives readers a brief overview of what the mass media is going about and what they should be paying attention to - it helps to concentrate attention while watching the mass media. After describing the theory or concept, the demonstration of the mass media allows the teacher to use the scenes as a case study. This approach helps students develop analytical skills in the practical application of what they have learned. For the first time, the term mass media was used to describe gazettes two centuries ago. Today, the media have different meanings. For example, there are media, print, visual and social networks. Although the mass media can have different forms, the purpose of all the mass media is the same-the mass media is a channel of communication. According to scientists, they argue that language learning is relatively easy by watching foreign media in English.

Improve your reading skills in English i.e. (reading skill) do this also we have media sources coming to your aid. In particular, various English-language newspapers and magazines. For example, in a number of foreign printed publications such as The Washington post, The New York Times, The Associated press, the French press, the Financial times, The Guardian, readers through reading, analyzing and editing News and articles, the reading skills also increases in thinking, outlook.

And now the increase in writing skills (writing skill) in this regard, too, we can rely on Accessible Media. It will be necessary to give the children the task of preparing a script for various small stage productions, or for a school newspaper, so that the students themselves

write articles, messages or news in English. Or social networks, that is, electronic media, that is, in internet networks, they can land their own personal blog in English. Through this also increases the writing skills.

Next skill is speaking, which can be used freely from all types of media. For example, it will be necessary not only to focus on films, but also to behave themselves as actors and actresses, as well as to return such roles, having mastered their accent on what they say. Including, students can prepare themselves an Information Program or a show, talk and make a video and also place it on social networks.

The media created by the students will be an alternative or supplement to the traditional research of the bachelor students. By implementing a digital storytelling project, it is possible to encourage readers' personal feedback and communication.

Studies show that people no clear to learn new and new concepts more easily when presented in oral and visual form than other research suggests that visual media becomes more understandable to people than text media and helps them to remember later. In a 2009 Willingham study, he asks a simple question to express his opinion: "Why do students remember everything on television and forget about what we have taught them?" Because visual media helps readers retain insights and ideas," he said. - American researcher Willingham who provides with answers. It also notes the decisive role of technology to create a learning environment that imposes on the capabilities of one-way communication tools such as movies, documentaries, TV shows and music. It is an interactive education, like visualization and content created by learners.

Advantages of using mass media: many mass media (feature films, music videos, visualization, News) have a very high production quality, capable of demonstrating complex ideas in a short time. This helps develop quantitative thinking. The Media offers both cognitive and immersive experiences. This can come up with a discussion, an assessment of one's own values, and a self-assessment if the scenes have a strong emotional context. The use of Media sources helps to connect students with events of cultural significance. As a result, the positive result of the use of mass media and technology is that teachers need to keep their materials and examples updated. With the help of news, theories taught in the classroom can be attributed to real events and politics.

In conclusion, the popular media (Movies, Music, YouTube) is a familiar tool for students, which helps to attract attention and retain the interest of students in the theories and concepts under discussion. Students will be able to see theories and concepts in practice. In a figurative sense, theories and concepts jump out of the screen. Students will be able to improve their analytical skills by analyzing and analyzing the media with the help of the theories and conceptions they are studying. The use of mass media and technology in the lesson allows students to see concepts and new examples when they are watching TV, listening to music, or when they are in the cinema with friends. Therefore, the use of media materials in the teaching of English as a foreign language is one of the most effective methods. In addition, the interest of students-young people and students in language learning increases in this, at the same time the process of language learning can also accelerate and achieve a faster and more thorough result than traditional education.

REFERENCES:

1. Bransford, John, Brown, Ann, and Cocking, Rodney. (1999) *How People Learn - Brain, Mind, Experience, and School*. National Academy Press, Washington, DC.
2. Salomon, G. (1979) *Interaction of media, cognition, and learning: An exploration of how symbolic forms cultivate mental skills and affect knowledge acquisition*. San Francisco: Jossey-Bass.
3. Bluestone, Cheryl. (2000) Feature Films as a Teaching Tool. *College Teaching*, 48(4):141-146
4. Champoux, Joseph E. (1999) Film as a Teaching Resource. *Journal of Management Inquiry*, 8(2): 206–217.
5. Goldenberg, Marni, & O'Bannon, Teresa. (2008) Teaching with Movies: recreation, sports, tourism, and physical education. *Human Kinetics*.

РАЗВИТИЯ НАГЛЯДНО-ОБРАЗНОГО МЫШЛЕНИЕ У СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕСС ОЗНАКОМЛЕНИЯ С ПРИРОДОЙ

Якубова Гульназ Маримбаевна

**Министерство высшего и среднего специального образования
республики Узбекистан Ургенчский государственный университет
Педагогический факультет магистрантка 211 группа, Дошкольное
образование**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6279485>

Аннотация: Воспитание средствами природы является одной из форм реализации общего воспитания, задача которого состоит в том, чтобы воспитывать детей с хорошо осознанными возрастными особенностями, возможностями психического развития. В дошкольной работе она имеет множество сторон, что делает ее достаточно широким общественным явлением, которое занимается изучением закономерностей педагогической науки. Дело в том, что роль природы, как и других существ в становлении ребенка, несравненно велика. Важность этого воспитания заключается в том, что дети непосредственно взаимодействуют с живыми существами, растениями и животными, оказывают непосредственное, непосредственное влияние на их поведение, питание, ходьбу, размножение, цветение, плодоношение растений, получение различных продуктов. В данной статье будут рассмотрены идеи и размышления о том, как научить детей, воспитывающихся в дошкольных образовательных организациях, бережно относиться к окружающей среде, развивать наглядно-образное мышление у старших дошкольников в процессе соприкосновения с природой.

Ключевые слова: дошкольные учреждения, старшие дошкольники, окружающая среда, сохранение, обучение уходу, сохранение природы, наглядно-образное мышление.

При ознакомлении дошкольников с природой учитываются их различные возрастные особенности. Особенно необходимо, чтобы знания и понятия о неживой природе, растениях и животных, о сезонных изменениях в природе, о труде людей в природе объяснялись по принципу от простого к сложному. Ознакомление детей детского сада с природой осуществляется на основе «программы воспитания и обучения в детском саду». Программа ставит своей задачей нравственное, умственное, физическое, эстетическое и трудовое воспитание детей в темпе, соответствующем их возрастным, психическим и физиологическим особенностям. В решении этой задачи он опирается на свои представления об основных направлениях реформирования общеобразовательных и профессиональных школ.

Процесс приобщения детей к природе является важной и составной частью процесса созревания духовного образа всесторонне развитой личности. Она включает в себя развитие у детей осознанного отношения к природе как национальной и общечеловеческой ценности, чувства ответственности за сохранение и приумножение природных ресурсов, навыков практического решения экологических проблем.

О живой природе познакомиться с 2-3 кустами деревьев на садовом участке, различить 2 птицы по внешнему виду, узнать бабочку, жука, лягушку, а в уголке природы понаблюдать за 2-3 комнатными растениями, изучить аквариум, некоторых рыбок в нем, птиц в клетке. А в средней группе обогащаются представления детей о растительном и животном мире, о сезонных изменениях в природе. Детей нужно воспитывать в духе наслаждения красотами природы, любви к природе, бережного отношения к растениям и животным. Цветы нужно воспитывать в духе заботы, не срывать их, не ломать деревья, не травмировать птиц.

При знакомстве с неживой природой можно научить ориентироваться по разнице погоды (холодно, жарко, солнечно, пасмурно, дует ветер, идет снег, идет дождь, выпал град), некоторым свойствам снега и воды (вода прозрачная, снег пористый, из-за чего может образоваться снежный ком, сугроб). Живя, в природе, на садовом участке, необходимо обучить 4 дерева, 2-3 куста, отделить дерево от куста, знать по 3-4 травянистых растения на цветок и лист, знать 1-2 вида плодовых деревьев, 2-4 вида полезных и ядовитых грибов.

Изучение растительности на садовом участке и вокруг него начинается с изучения местных овощных культур. Дети должны уметь различать в—7 травянистых растений по цветку и листу, различать 2 вида злаков, 3-4 вида, 2-3 вида плодовых растений. А из животного мира они узнают 4-5 зимующих, 3-4 перелетных птиц, 2-3 бабочки, жука-кузнечика, муравья, муху, пчелу, лягушку, ящерицу, узнают об их образе жизни, движении (плавании, прыжках, лазании по деревьям, полете, беге). Больше всего эта группа детей хорошо усвоит формирование времен года в природе (осень, зима, весна и лето), их характерные особенности. А в уголке природы учатся различать 5-6 растений, растущих в комнате, по цвету их листьев, внешнему строению. Также дети изучают животных уголка природы по их внешнему строению и характеру (рыбы, птицы, живородящие животные). Даже в этой группе дети узнают много нового о живой и неживой природе. Живая природа дана ежеквартально. » Программа воспитания и обучения в детском саду " -это основное пособие для воспитателей, которое должен отлично знать каждый воспитатель. Некоторые средства воспитания в» программе " могут быть изменены в зависимости от локальных условий, творческого подхода к ней, дополнения, но не должны выходить за рамки общего направления программы. Следовательно, процесс формирования экологической культуры детей на базе дополнительного образования протекает слабо. Этому способствуют несколько факторов:

- научный фактор-в литературе проблема формирования гармонии экологической культуры у детей практически не освещена в научно-теоретическом плане;

- социальный фактор-в формировании приобщения детей к природе действия общества, образовательных учреждений, имеют разную направленность, экологические движения, движения решения разнообразны, т. е. не идеально подходят;

- научно-методический фактор-экологическое образование на всех звеньях системы непрерывного образования признано обязательным-компонентом образовательного процесса, программа спецкурсов и ее содержание не разработаны всесторонне, а содержание учебных дисциплин в системе непрерывного образования

не рассмотрено более глубоко в формирующем направлении ознакомления детей с природой.

Экологические знания, умения и навыки не связаны научно-практическим путем с экологическими проблемами будущих специалистов на своей территории. Из этого следует, что это определено в " концепции непрерывного экологического образования". задачи не нашли полного практического применения в учебно-воспитательной сфере. Внедрение экологических знаний в содержание учебных дисциплин не осуществлялось на научной основе. В результате наблюдается разрозненность экологических фактов, увеличение количества информации и цифр, слабо ведется использование новых педагогических технологий в изложении экологического материала.

В заключение, история узбекского народа имеет богатое творческое наследие, связанное с ознакомлением молодого поколения с природой, изучение, реализация и доведение этого наследия до будущих поколений является важнейшей задачей этого дня. Расширение экологической практики детей в период общения с окружающей средой заключается в формировании у них экологического отношения, активно воздействующего на окружающую среду. Бережное отношение к природным богатствам и активная работа по их рациональному использованию в направлении возрождения и развития богатого исторического наследия являются основой экологической культуры подрастающего поколения, повышения его духовных возможностей, что немаловажно в воспитании у детей чувства гордости за родную землю, за Родину.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Rajabova L. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shart-sharoitlari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2021. - Т. 3. - №. 3.
2. Sharipova M. B., Nizomova S. S. The artistic image of the image of" water" in the poem //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА.-2018. - 2018. - Т. 11. - С. 75.
3. Низомова, Ш. Ш. "Роль современных информационных технологий и электронных средств в обучении, образовании и развитии личности." Вестник магистратуры 4-3 (2019): 68.
4. Mahmudovna N. M. Improving the preschool education system from the perspective of the age values of children //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). - 2021. - Т. 10. - №. 1. - С. 182-185
5. Rajabova L. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o 'qitish texnologiyasining asosiy tamoyillari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBİYA FANINI O'QITISHDA AJDODLARİMİZ MEROSİDAN FOYDALANİSHNING AHAMİYATI

Dilfuza Kulchayeva

Guliston davlat universiteti

ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang'ich ta'lim) ta'lim yo'nalishi

2-bosqich magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6279521>

Annotatsiya: Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning tarbiya darslarida ajdodlarimiz merosidan foydalanishning zarurligi, ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: dars, ta'lim, tarbiya, ajdodlar merosi, ma'naviy meros.

Mamlakatimizda yuksalish davri boshlandi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiyaga o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoitini tubdan yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishning xorijiy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya ta'lim bilan uyg'un, ammo o'ziga xos shart-sharoitni, uzluksizlikni talab qiluvchi soha. Ta'lim – bilimdon yoshlarni, tarbiya – irodasi kuchli, vatanga sodiq, tadbirkor, mehr-oqibatli yoshlarni yetishtirib beradi. Bu esa O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini yangilangan milliy g'oya negizida, milliy-zamonaviy, ilmiy-texnologik asosda isloh qilishni taqozo qilmoqda.

Yurtboshimiz 2020-yilning 30-sentabrida "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligini, ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liqligini, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotganini alohida ta'kidlab o'tdilar. Ushbu g'oyalar asosida ulkan tarixiy maqsad mujassam ekanini barchamiz anglab yetishimiz kerak. Shunday ekan, biz yangi Renessansga mos avlod bo'lish uchun yoshlar qanday xislatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida chuqur o'ylashimiz, undan keyin ta'lim-tarbiyani shunga yo'naltirishimiz lozim. Bugungi kunda yoshlarimiz bizning nafaqat tayanchimiz va suyanchimiz, balki bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanishi maqsadga muvofiq.

Tarbiya sohasida eski – umumiy, mavhum, natijasiz yondashuvdan voz kechib, aniq, bugungi talablarga chidamli, tayanch kompetenstiyalar, fazilatlar asosida shakllanishni talab etmoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan "Tarbiya" fanini o'qitish ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish, buning natijasi o'laroq, oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi.

"Tarbiya" darslarida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatish, ularda faol fuqarolik nuqtayi nazarini, milliy g'urur, bag'rikenglik va sog'lom e'tiqodni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

"Tarbiya" fanini o'qitishda yosh avlodda mustahkam e'tiqod, yuksak dunyoqarash, teran tafakkur, oilyjanob fazilatlarni shakllantirish, Xo'sh, o'quvchining mustaqil fiklashi deganda nimani tushunamiz? Ularda go'zal insoniy fazilatlarni kamol toptirish jarayonida ajdodlar merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslar jarayonida biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi, mangu chaqiriq bo'lgan rivoyat, hadis, hikmat, hikoya, pandnomalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ma'naviy merosimizning dur-gavhari hisoblangan maqol, matal va hikmatli so'zlardan darsda foydalanish, ular asosida olib boriladigan savol-javob, suhbatlar, munozaralar darsni yanada qiziqarli o'tishiga xizmat qiladi.

Zero, hikmatlardan ota-bobolarimiz asrlar osha bosib o'tgan yo'lni, boshdan kechirganlarni, turmush shodliklari va chekkan azob – uqubatlari, teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davlatlarda, o'rta asr va undan keyingi asrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, rasm-rusmlarini, rang barang an'analarini ko'ramiz va his etamiz. Shu bilan birga darslarda hadislardan keltirilgan axloq-odob, kasb-hunar, ilm fazilatlari, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik haqida shunday qimmatli fikrlar faqat o'tmishda emas, hozirgi kunda ham yosh avlodni yuksak axloqiylik va ma'naviylik ruhida tarbiyalashda boy manbadir.

through self-study, or through immersion in the target language culture. Such students may have enrolled in language classes specifically to ensure that the learning experience is made more efficient and systematic. The teacher who ignores this expectation by encouraging learners simply to experience language is likely to frustrate and alienate them.

Used literatures:

- 1.Azar, B. (2007). Grammar-Based Teaching: A Practitioner's Perspective. TESL-EJ. 11(2). 1-12 Retrieved September 12, 2012 from <<http://www.tesl-ej.org/ej42/a1.pdf>>
- 2.Bradford, Arthur. (1973). Teaching English to Speakers of English. New York: Harcourt
- 3.Brown, H.D. (1980). Principles of Language Learning and Teaching. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
- 4.Byrd, Patricia. (1998). Grammar from Context. In P. Byrd & J. Reid (Eds.), Grammar in the Composition Classroom: Essays on Teaching ESL for College-bound Students, 54-68. Boston: Heinle & Heinle.

O'SMIRLARNI MANIPULYATSION TA'SIRLARDAN PSIXOLOGIK HIMOYA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: **Nazarov Akmal Mardonovich**

Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrası dotsenti

Fayzulloyeva Mohinur Sa'dullo qizi

Buxoro davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6298886>

Annotatsiya: Maqolada o'smirlarni psixologik himoya qilish jarayoni, manipulyatsion ta'sirlar va umumiy tarzda psixologik himoyaning mexanizmlari haqida fikr va mulohazalar, kichik tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib hozirgi kunda ushbu masalaning ilmiy va amaliyotdagi holati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: psixologik tasir, psixologik himoya, manipulyatsiya, o'smirlar, shaxsiy himoya mexanizmlari

KIRISH

Shaxsiy himoya mexanizmlari, psixologik himoya avvalo odamning salbiy tajribalarini minimallashtirishga, odamlarning xatti-harakatlarini tartibga solishga, uning moslashuvchanligini oshirishga va ruhiyatini muvozanatlashga qaratilgan ongsiz ruhiy mexanizmdir. Boshqa tomondan, u ko'pincha shaxsiy rivojlanishga to'sqinlik qiladigan bazi omillarga ega.

Psixologik himoya mexanizmlarining aksariyati bolalik davrida shakllangan bo'lib, bolani yopishga, tashqi qiyinchiliklar va xavflardan yashirishga imkon beradi. Bolaning aqliy rivojlanishining asosiy hal qiluvchi omili oilaviy munosabatlardir, ularning buzilishi ko'pincha shaxsiyatning emotsional rivojlanishidagi disarmoniyaga, bolaning psixologik himoyasi gipertrofiyasiga, patopsixologiyaga olib keladi. Oilaviy tarbiya muhiti sharoitlari, oilaning ijtimoiy mavqei, uning a'zolarining kasbi, moddiy ta'minlanishi va ota-onalarning ta'lim darajasi ko'p jihatdan bolaning ruhiy salomatlik darajasini belgilab beradi.

Psixologik himoyalani va kurash mexanizmlarini shakllantirish muammosini o'rganishning dolzarbligi va ahamiyati, shuningdek, shaxsning rivojlanishi va sotsializatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan jamiyatdagi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarini o'rganish uchun tadqiqot o'tkazildi.

Ushbu mavzuda Raigorodskiy V.K. tomonidan tahrir qilingan "Shaxsiyat psixologiyasi", A.Freydning "O'zini himoya qilish va himoya qilish mexanizmlari", E. S. Romanova va L.R. Grebenshchikovaning "Psixologik himoya mexanizmlari", "Psixologik himoya tushunchasi". Z.Freyd va K.Rojers tushunchalarida "Jurbin VI va boshqa ko'plab ilmiy nashrlar va davriy nashrlarda ilmiy ishlar va adabiyotlarda asosli fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan E.V.Sidorenkoning ishida ko'rsatilgan **psixologik ta'sir** –Bu boshqa shaxsning holatiga, fikrlariga, his-tuyg'ulariga va harakatlariga faqat psixologik vositalar yordamida ta'sir qilish, unga ushbu ta'sirga javob berish huquqi va vaqtini berish. Shu bilan birga, bor *ta'sirning*

tashabbuskori (birinchi bo'lib ta'sir o'tkazishga harakat qilgan kishi) va *ta'sir manzili*(bu urinish kimga qaratilgan bo'lsa). Psixologik ta'sirning ko'plab turlari mavjud (1-jadval)¹.

Rus psixologiyasida odamga ta'sir qilish strategiyalarining tipologiyasi o'zaro munosabat sub'ekti yoki ob'ekti sifatida muloqot sherigiga bo'lgan munosabatiga asoslangan deb hisoblanadi. G.A.Kovalev tasnifiga ko'ra, real hayotda inson quyidagi uchta asosiy strategiyani namoyon qiladi: imperativ, manipulyativ va rivojlanish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Hozirgi vaqtda psixologik himoya-bu odam o'zining ichki tuzilishini, ongini tashvish, uyat, ayb, g'azab, shuningdek, to'qnashuv, umidsizlik va boshqa xavfli vaziyatlardan himoya qilish uchun ongsiz ravishda murojaat qiladigan har qanday reaksiya.

Himoya mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar²:

A) himoya mexanizmlari ongsiz;

B) himoya mexanizmi ishining natijasi shundaki, ular ongsiz ravishda sub'ekt bilan bitim tuzilgan voqelikni buzadi, almashtiradi yoki soxtalashtiradi. Boshqa tomondan, insonning voqelikka moslashishida himoya mexanizmlarining o'rni bor ijobiy tomoni beri ba'zi hollarda ular odamni haqiqatning haddan tashqari talablariga yoki odamning o'ziga nisbatan haddan tashqari ichki talablariga moslashtirish vositasidir.

- Manipulyatsiya-bu psixologik ta'sirning bir turi, uni mohirona bajarish boshqa odamning niyatlarini ochiq qo'zg'atishga olib keladi, bu uning mavjud istaklariga to'g'ri kelmaydi.

Psixologik ta'sir turi sifatida manipulyatsiya belgilangan maqsadga erishishga yordam beradi. Biroq, ta'sir qilish usullaridan noto'g'ri va savodsiz foydalanish istalmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin ta'sir ob'ekti shaxsning shaxsiyatsizlanishi, uning individual psixologik xususiyatlarini yo'q qilish yoki hatto aqliy va jismoniy jihatdan yo'q qilish.

Manipulyatsiya shaxslararo munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'zini namoyon qilmaydi. Manipulyatsiyaning paydo bo'lishi uchun sharoitlarni faollashtiradigan odamlar bor. Shu munosabat bilan, muvaffaqiyatli manipulyatsiyaga yordam beradigan shaxsiy xususiyat ajralib turadi - Makiavelizm. Rus psixologiyasida "makiavellizm" tushunchasi ko'pincha manipulyatsiya qilish qobiliyati va moyilligi bilan almashtiriladi.

2.6 -jadval

Psixologik ta'sir turlari³

| Ism | Ta'sirning tavsifi |
|-----------------------|--|
| E'tiqod | Boshqa shaxsga (yoki bir guruh odamlarga) o'z hukmini, niyatini yoki qarorini o'zgartirish uchun ongli ravishda ta'sir qilish. Bunday holda, tashabbuskor ishontirish maqsadini aniq belgilaydi va uni qabul qiluvchiga yo'naltiradi |
| O'zini reklama qilish | Maqsadlarini e'lon qilish va qadrlash uchun ularning malakasi va malakasini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etish. Yangi lavozimga |

¹ Romanova E. S. Psixodiagnostika - "Butrus" 2005 yil 55-b

² Shaxsiyat psixologiyasi. 1 -jild. O'quvchi. Raigorodskiy tahririda V.- K. Rostov-na-Donu, "BAHRAX-M", 2011 yil.

³ D. Zigler. Shaxsiyat nazariyalari. - SPb., "Piter", 2002 yil

| | |
|---------------------------------|---|
| | tayinlashda va saylovlar sharoitida va hokazolarda oqlanadi. |
| Taklif | Boshqa shaxsga (yoki bir guruh odamlarga) ularning holatini, biror narsaga munosabatini va muayyan harakatlarga moyilligini o'zgartirish uchun ongli yoki ongsiz asossiz ta'sir qilish. |
| Infektsiya | O'z holatini yoki munosabatlarini (o'zaro ta'sir jarayonida) ushbu holat yoki munosabatni qabul qilgan boshqa shaxsga (yoki odamlar guruhiga) o'tkazish |
| | O'ziga o'xshash bo'lish istagini uyg'otish qobiliyati. Bu qobiliyat ongsiz ravishda o'zini namoyon qilishi va ma'lum bir maqsadda (ixtiyoriy) ishlatilishi mumkin. |
| Shakllanish yaxshilik qiladi | Tashabbuskorning o'ziga xosligi va jozibadorligini ko'rsatish, qabul qiluvchiga xushmuomalalik bilan baho berish, unga xizmat ko'rsatish va boshqalar orqali qabul qiluvchining o'ziga beixtiyor e'tiborini jalb qilish. |
| | Ta'sir tashabbuskorining ehtiyojlari yoki istaklarini qondirish uchun murojaat bilan adresatga murojaat qiling |
| Majburlash | Adresantdan kerakli xulq-atvorni olish uchun nazorat qilish (provokatsion) qobiliyatlardan foydalanish tahdidi. Qayerda <i>nazorat qilish qobiliyatlari</i> - bu adresatni har qanday imtiyozlardan mahrum qilish yoki uning hayoti va ish sharoitlarini o'zgartirish vakolati va hokazo. |
| Buzg'unchi | Shaxsning shaxsiyati haqida rad etuvchi yoki haqoratli mulohazalarni bildirish, shuningdek, uning xatti-harakatlari va xatti-harakatlarini qo'pol tajovuzkor hukm qilish, haqorat qilish yoki masxara qilish. Bu tanqid odamga "yuzini qutqarishga" ruxsat bermaydi, kuchlarini asosan salbiy his -tuyg'ularga qarshi kurashishga yo'naltiradi, odam o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. |
| Manipulyatsiya | Adresantning ma'lum holatlarni boshdan kechirishga, qarorlar qabul qilishga va tashabbuskorning o'z maqsadlariga erishishi uchun zarur bo'lgan harakatlarni bajarishga bo'lgan yashirin istagi. |

E.V.Sidorenkoning fikricha, bu tasnif har ikki tomonning ta'sir qilish tajribasi fenomenologiyasi talablariga javob beradi. Shunday qilib, halokatli tanqid tajribasi ishontirish tajribasidan sifat jihatidan farq qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqotlar tahliliga ko'ra quyidagi natijalar yuzaga keldi:

Manipulyativ ta'sirning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- axborotni maqsadli ravishda o'zgartirish (buzish, yashirish); ta'sirni yashirish;
- ta'sir maqsadi, ya'ni. ta'sirlangan ruhiy tuzilmalar; robotlashtirish

O'smirlik davrida psixologik himoya mexanizmlarini o'rganishga psixologik jihatdan yondashganda Plutchik-Kellerman-Conte "LIFE STYLE INDEX" usuli yordamida tadqiqot

o'tkazish mumkin. Psixologik himoya tizimining ierarxiyasini o'rganish uchun 8 ta asosiy psixologik himoyaning kuchlanish darajasini o'rganib chiqdi⁴.

Empirik tadqiqotlar natijasida o'smirlik davrida psixologik himoyaning dominant mexanizmi inkor etilishi aniqlandi. Bu 53,57% sub'ektlarda ustunlik qiladi. Reaktiv ta'lim 10,75% o'rganilgan o'smirlarda ustunlik qiladi. Ratsionalizatsiya-sub'ektlarning 7,14 foizida. Ko'chirish -14,29% respondentlarda. Regressiya va almashtirish har birining atigi 3,57 foizida ustunlik qiladi. Proektsiya-o'rganilgan o'smirlarning 7,14% da.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, o'smirlik davrining psixologik himoyalanişida maqsadga muvofiq yangi va mukammal mexanizmi yaratilmagan.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagi tahliliy materiallar va fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'smirlik davrida psixologik himoyaning asosiy mexanizmi obyektning shaxsiy xarakter omillari asosida inkor qilinadi. Ammo bunga qaramay doimo o'smirlarni umuman olganda yoshlarni himoya qilish va ularga doimo psixologik xizmatlarni ko'rsatish hardim asosiy masala bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Romanova E. S. Psixodiagnostika - "Butrus" 2005 yil
2. Shaxsiyat psixologiyasi. 1 -jild. O'quvchi. Raigorodskiy tahririda V.- K. Rostov-na-Donu, "BAHRAX-M", 2011 yil.
3. D. Zigler. Shaxsiyat nazariyalari. - SPb., "Piter", 2002 yil
4. Psixologiya. Tahrirlangan N. R. Krilova - M., "Akademiya", 2003 yil
5. O'z-o'zini anglash va shaxsiy himoya mexanizmlari. O'quvchi.-Samara "BAHRAX-M" 2010 yil
6. Hayot tarzi indeksining psixologik diagnostikasi (shifokor va psixologlar uchun qo'llanma). Vasserman tahriri ostida - SPb., PNI, 1999.

⁴ <https://mbukckslg.ru/uz/psihologicheskaya-zashchita-podrostkov-oprosnik-plutchika-kellermana-konte.html>

O'SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Ilmiy rahbar: Sh.R.Baratov

Psixologiya fanlari doktor, professor. Buxoro Davlat Universiteti

Abdullayev Shahzodjon Zokirjonovich

Buxoro Davlat Universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6298892>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlar, xususan maktab bitiruvchilari va kasb tanlash yoshidagi yoshlarning ushbu tanlov jarayonidagi yuzaga keladigan muammolari va ularning kasbiy psixologiya fani yordamida echis masalalari tahlil qilingan va ushbu masalaning psixologik tamoillariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasb, qiziqish, motiv, tanlov moyillik, faoliyat, optatsiya, adept, adaptant, internal, Kudryavtsev, Klimov.

KIRISH

Har bir insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga etishini uning hayot yo'lidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologik manbalar va adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsining taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mataxassisining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir.¹

Inson bolasi voyaga etgach o'z qiziqish va qobiliyatlariga ko'ra biror kasb yoki hunarni tanlaydi. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki, kasbiy faoliyat uzoq vaqt davomida inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qoladi. Psixologik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra ham odamlarning salomatligi hamda o'zini baxtli his etish darajasi uning tanlagan kasbi bilan uzviy bog'liq ekan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oida o'zbek va xorijiy olimlarning ko'plab ilmiy ish va tadqiqotlari olib borilgan bo'lib, jumladan ular orasida o'smirlar, umuman olganda ish qobiliyatiga ega shaxslar kasbiy tanlovida texnik qobiliyatlar testi muhim o'rin egallaydi. Texnik qobiliyatlar deganda murakkab intellektual qobiliyatlar tushuniladi. Bu qobiliyatlar o'z ichiga keng tasavvurlar, texnik salohiyat va sensomotor malakalarini qamrab oladi. Texnik qobiliyatlar testi injenerlar, mexaniklarni kasbiy tanlovida keng doirada qo'llaniladi. Bu borada A.A.Beknet va Minnesotski testlari keng tarqalgan.

Maxsus qobiliyatlarning so'nggi guruhiga A.Anastazi kasbiylashgan qobiliyatlarni kiritadi. Ularni o'lchash uchun tuzilgan testlar faoliyatning ma'lum kasb sohasida shakllantiriladi. AQShda Minnisota shtatida konselariya testi keng ommalashgan bo'lib, tartibni qabul qilish tezligi, ishbilarmonlik atamalar ro'yxatini bilishi, eshitishi, xabardorlik, savodxonlik chiroyli nutqqa egalik kabi qobiliyatlarni aniqlab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

¹ Haydarov F. Xalilova N. Kasb psixologiyasi T. 2010.

Kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo bo'ladi. Kishilarning individual-psixologik xususiyat-larini kasb talablari bo'yicha kasbiy tayyorgarligiga mosligini aniqlash uchun qator mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy tanlov o'tkaziladi. Uning bajarilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi ya'ni unga ko'ra kasbning normativ tavsiflarini belgilab olish psixologik xususiyat va sifatlarini aniqlash lozim. Psixologiya fanida kasbiy shakllanish jarayonini davrlashtirishning bir necha variantlari ishlab chiqilgan. T.V. Kudryavtsev shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko'ra, kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:²

- 1) kasbiy moyillikning paydo bo'lishi;
- 2) kasbiy ta'lim va kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o'z o'rnini toppishga intilish;
- 4) kasbiy mehnatda shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi.

E. A. Klimov insonni mehnat sub'ekti sifatida talqin etib kasbiy yo'nalgan davrlashtirishni quyidagicha asoslab bergan:

1. O'yindan oldingi bosqich (4 yoshgacha bo'lgan davr)-kishining keying rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo'lgan idrok qilish vazifalarini o'zlashtirish;
2. O'yin bosqichi (5-8 yosh)-inson faoliyatining "asosiy mazmuni"ni o'zlashtirish;
3. O'quv faoliyatini o'zlashtirish bosqichi (8-12 yosh)-faoliyatni rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat va taxlil qilish;
4. Optatsiya bosqichi (12-17 yosh)-kasb-hunar ta'limi muassasalarida kasb tanlash davr;
5. Adept bosqichi (17-20 yosh)-tanlangan ixtisoslik bo'yicha kasbiy tayyorgarlik;
6. Adaptant bosqichi (20-23 yosh)-kasbning ichiga kirish va unga ko'nikish;
7. Internal bosqich (23-26 yosh)-kasbiy tajriba to'plash;
8. Kasbiy mahorat bosqichi-mehnat faoliyatini malakali bajarish;
9. Obro`-e'tibor bosqichi mutaxassis tomonidan yuqori malakani o'zlashtirish;
10. Ustozlik bosqichi-mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani shogirdlarga berish, o'z maktabini yaratish.

NATIJALAR

Yuqoridagi masala yuzasida olib borilgan tahlillar natijasida shunday fikrga kelindiki, kasb tanlash inson uchun muhim muammolardan biridir. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Kasb tanlash arafasida turgan inson shaxsining mazkur sohadagi qanchalik mos ekanligi faqatgina ushbu faoliyat jarayonidagina aniqlanadi. Ushbu mavzuga ilmiy yondashish asnosida kasbiy psixologiya fanining tarkibiy qismlari va manbalari ham o'rganib chiqildi³.

Kasbiy psixologiyaning asosiy konseptual qoidalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.⁴

1-jadval

| Asosiy tushunchalar | Konseptual qoidalari |
|----------------------------|--|
| Kasbiy shakllanish | Kasbiy shakllanish–bu shaxsning kasb tanlash jarayonidagi kasbiy ta'limga tayyorlanish, shuningdek |

² Кудрявцев Т. В. Психология профессионального обучения и воспитания. М.,1997.

³ <https://www.google.com/search>. Климов Е. А. Как выбрать профессию. М.: Провещение, 1990.

⁴ Haydarov F. Xalilova N. Kasb psixologiyasi T. 2010. 55-b

| | |
|--|---|
| | kasbiy faoliyat jarayonidagi rivojlanish hisoblanadi . |
| Kasbiy shakllanish bosqichlari | Kasbiy shakllanish-getroxron jarayon bo'lib, ayrim paytlarda pasayish va sakrash xususiyatiga ega. Individning shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillarining o'zaro aloqalariga ko'ra kelishmovchilik va inqirozlar kiritiladi. Bu individual to'laqonli jarayonini ijtimoiy vaziyat va asosiy faoliyat bilan bog'liq bosqichlarga ajratish mumkin. Ular sirasiga kasbiy tayyorgarlik, kasbiy adaptatsiya, birlamchi va ikkilamchi professionalizatsiya va kasbiy mahoratlar kiradi. |
| Kasbiy shakllanish turlari | Kasbiy shakllanish yo'li va tezligi bir guruh omillar bilan belgilanadi. Ularga yosh, individual-psixologik, kasbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. |
| Kasbiy rivojlanish | Kasbiy rivojlanish – bu yo'nalish salohiyat va muhim kasbiy sifatlarning boyib borishi, mehnat faoliyati samaradorligini oshirib borish bilan belgilanadi. |
| Kasbiy shakllanishining psixologik jihati . | Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o'zini topa olish uchun o'z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an'analarni o'zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko'rsatish. |
| Kasbiy jihatdan o'zini anglash | Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo'lgan jihatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajarila-digan ishidan ma'no topishi. |
| Kasbiy jihatdan o'zini asray olish. | Inson shaxsiga yo'naltirilgan mahsuldor kasbiy faoliyatda doimiy o'zini-o'zi o'zgartirib turishi, tayyorgarligi va kasbiy imkoniyatini o'zini ruyobga chiqarishi, kasbiy hayotini boshqara olishi, kasbiy rivojlanish va lavozimda ko'tarilishdagi destruktiv vaziyatlarni engib o'tish bilan bog'liqdir . |
| Professionalizatsiyalashuv destruksiylari | Professionalizatsiya jarayonidagi miqdor va sifat o'zgarishlar, shaxsning rivojlanishi va deformatsiyasi bilan kuzatiladi. |
| Kasbiy o'zini-o'zi faollashtirish | Shaxsning kuchini faollashtirish yo'li bilan kasbiy rivojlanishni tezlashtirish, normadan ortiq kasbiy faoliyatni namoyon etish, shuningdek turli xil psixotexnologiyalarda qatnashish va boshqalar. |
| Kasbiy ijtimoiylashuv | Kasbga kirib borish va uni egallashda kasbning ijtimoiylashuvi kuzatiladi; ya'ni, kasbiy ta'rifikatsiyada o'z o'rnini topish, kasbiy imkoniyatini ishlab chiqish, kasbiy identifikatsiyani shakllantirish. |

XULOSA VA MUNOZARA

Bir so'z bilan aytganda shaxsda kasbiy o'zligini anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin:

✓ Kasblar olami haqidagi aniq-ko'rgazmali tasavvurlarning paydo bo'lishi davri. Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli-tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa etakchi o'quv-biluv faoliyatida o'quvchining kasblar haqidagi tasavvuri yanada kengayib boradi.

✓ O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida etarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikka ega bo'lmaganlari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar. Biroq ularda yangi etakchi faoliyat tengdoshlari bilan muloqot jarayonida o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchli namoyon bo'ladi.

✓ O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zlikni anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablariga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кудрявцев Т. В. Психология профессионального обучения и воспитания. М., 2000.
2. Karimjan Abduraximovich Mutalov, Movluda Karimjonovna Gulmatova "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning dolzarbligi" Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Jurnal. 2022. 2-b
3. Haydarov F. Xalilova N. Kasb psixologiyasi T. 2010. 55-b
4. <https://www.google.com/search>. Климов Е. А. Как выбрать профессию. М.: Провещение, 1990.
5. Cyberleninka.ru, fayllar.org, arxiv.uz

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Barnoyeva Yulduz Rasulovna

Buxoro davlat universiteti psixologiya yo`nalishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6298930>

Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan tub islohatlar hamda qadriyatlarimizning qayta tiklanayotganligi, milliy, madaniy va ma'rifiy meroslarimizdan xalqimiz hayotida, bolalar tarbiyasida keng foydalanilayotganligi kishilar o'rtasida mehr-oqibat, insoniylik, muruvvatlilik va olijanoblik kabi yuksak fazilatlarining shakllanishiga zamin yaratish bilan bir qatorda yurtimiz fuqarolari turmush faravonligining oshishiga, ularda ertangi kunga nisbatan bo'lgan ishonch hissining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ona yurtimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham kishini quvontiradigan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikka erishilganidan so'ng, mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi, o'z qadr qimmatimiz, milliy davlatchiligimiz, madaniyatimiz, tilimiz va dinimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklab, jaxon xamjamiyatida o'zimizga munosib obro' e'tibor qozonishga erishdik, hayotimizning barcha soha va jabhalarini demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, iqtisodiy va siyosiy sohalarni liberallashtirish jarayonlari yo'lida katta ahamiyatga ega bo'lgan qonun va qonunchilik normalari qabul qilindi, mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilishning mutlaqo yangi konsepsiyasi yaratildi.

Ammo, yurtimizda yoshlarimizning har tomonlama kamol topishlari uchun hukumatimiz va shaxsan yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar va bu sohaga berilayotgan katta e'tiborga qaramasdan yoshlar o'rtasida giyohvandlik, alkogolizm, jinoyatchilik kabi jamiyatimiz uchun yot bo'lgan illatlar uchrab turibdi. YOshlar o'rtasida yuzaga kelayotgan bunday holatlar o'z navbatida Respublikamiz rahbariyati va keng ilmiy jamoatchiligining e'tiborini bu sohaga yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Ijtimoiy tartib-qoidlarni buzish ijtimoiy me'yorlardan og'ish xulqi bilan ham ifodalanadi. SHu boisdan ijtimoiy me'yorlardan og'ish tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik omillarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Jinoyatchilik hodisasini bir butun deb oladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi uning ajralmas, joiz bo'lsa asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. CHunki, bolalik yoki o'smirlik yoshidan boshlangan qonunbuzarlik yoki jinoyatchilik ba'zan kishining butun umrini qamrab olishi mumkin. SHu boisdan bugungi kunda butun dunyo miqyosida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini har tomonlama tadqiq etish va uning oldini olish masalasi eng dolzarb masalalardan biriligicha qolmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muhitni barqarorlashtirishning muhim shartlaridan biri yosh avlodni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashdir.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ilmiy o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, bu muammo yuzasidan xilma-xil fikr-mulohazalar va qarashlar o'rtaga tashlanganligining guvohi bo'lamiz. Ma'lumki, insonning ma'naviy olami va xulq-atvoriga u

yashayotgan muhit va shart-sharoitlari doimiy ravishda ta'sir etib turadi. Uning ayrimlari kishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatsa, ayrimlari bilvosita tarzda ta'sir qiladi.

Jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik omillari deganda, eng avvalo makro va mikromuhit deb nomlangan ikki katta tushunchalarga izoh berib o'tish lozim bo'ladi. Jinoyatchilikning psixologik omillari esa jinoyatchi shaxsining individual-psixologik va yosh davri xususiyatlari jamlanmasi ma'nosida talqin qilinadi.

Makromuhit, ya'ni katta ijtimoiy qatlamdagi munosabatlar, xususan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, siyosiy xokimiyatning tashkil etilishi, jamiyatdagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy ongning shakllari hamda kishilarning katta guruhlariga hisoblangan millat, siyosiy partiyalar, harakatlar, ijtimoiy va professional guruhlar va boshqalar asosida tashkil topadi. Mikromuhit esa shaxsga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi, ya'ni insonni qurshab olgan muhitni, uning oilaviy muhitini, mehnat faoliyati, shart-sharoitlari, xizmat ko'rsatishi va dam olishini hamda u faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoasi va turli xil ehtiyojlarni qondirish yo'lidagi muomala munosabatlarini qamrab oladi.

Makromuhitning jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'siri to'g'risida gapirilganda avvalo jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, kishining turmush tarzi, ijtimoiy mavqei, jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Jamiyatning iqtisodiy inqirozi kishilarning turmush tarziga, hayot kechirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kishilarni jamiyatda o'z o'rni, hayotini saqlab qolish uchun turli xil g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni bajarishga undaydi. Oqibatda bunday jamiyatda qonunning ustuvorligi yo'qoladi, turli xil qonunbuzarliklar, jumladan o'g'irlik, bosqinchilik, zo'rvonlik kabi jinoyatlar avjiga chiqadi. Mamlakatda siyosiy beqarorlikning hukm surishi, muayyan mafkura va g'oyaning yo'qligi ham turli xil qonunbuzarlikning kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, voyaga yetmaganlarning bezoriliklari ko'pincha o'zini ko'rsatish va ermak, ovunchoq sifatida, tengdoshlarini kuldirish, qiliqlar ko'rsatish ma'nosida sodir etiladi. O'smirning bu xildagi xatti-harakatlari ba'zan jamiyatga, kishilarga jiddiy putur etkazishi va jinoiy harakatga aylanishi mumkin.

SHaxsga tajovuz qilish jinoyatchiligi orasida voyaga yetmaganlarning nomusga tegish jinoiy harakatlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, o'smirlar tomonidan bunday jinoiy harakatlar mastlik holatida, guruhiy ko'rinishda amalga oshiriladi. Bunday jinoyatlarning o'ziga xos jihatlardan biri hech qachon o'ziga yaxshi tanish bo'lgan xotin-qizlarda amalga oshirmasligidir. YA'ni, bunday jinoyatlar asosan notanish, davraga yangi taklif etilgan yoki ko'cha-ko'yda uchratib qolgan xotin - qizlarda sodir etiladi.

Voyaga yetmaganlarning bunday jinoiy harakatlarini tahlil qilganimizda, ular nafaqat jinsiy ehtiyojni qondirish, balki jinsiy tarbiya borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli sodir etilayotganligining guvohi bo'lamiz. Bunday bolalar va o'smirlar oilada jinsiy tarbiya borasida etarlicha tarbiya ko'rmaganliklari bilan ajralib turadilar. Ayrim o'smirlar o'zining bunday harakatlarini "erkak sifatida etilganliklari"ni ko'rsatish, namoyish etish ma'nosida ham sodir etayotganliklari kuzatiladi.

Bolalar va o'smirlar tomonidan garchand kam darajada bo'lsada tovlamachilik, firibgarlik jinoyatlari ham sodir etiladi. Bunday jinoiy harakatlar ko'pincha noto'liq oilalarda yoki ota-onasiz tarbiyalangan bolalar va o'smirlar tomonidan amalga oshirilganligi kuzatiladi. SHuningdek, bunday jinoyatlar kattalarning ishtirokida ularning ta'siri, yo'l-yo'riqlari asosida sodir etilayotganligining ham guvohi bo'lishimiz mumkin. Bolalar va o'smirlar o'rtasida

qanday jinoyat turlarining keng tarqalayotganligidan qat'iy nazar, ularda yosh davri xususiyatlarining ta'siri va o'rni mavjudligini ko'ramiz.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kattalar jinoyatchiligi bilan taqqoslanganda ularning tor doira va mazmunga ega ekanligi, ya'ni jinoiy harakat mazmuni moddiy - tovar boyliklariga yo'naltirilganligi hamda turli xil mayda bezoriliklar bilan chegaralanayotganligi kuzatiladi. Jinoiy harakatni amalga oshirish usullarining sodda va oddiyliги bunday jinoyatlar bevosita voyaga yetmagan jinoyatchi tomonidan amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining motivlarini o'rganish maqsadida, o'zimiz tomonimizdan tuzilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomadani foydalandik hamda ichki ishlar bo'limi tomonidan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo'yicha qo'zg'atilgan jinoiy ish hujjatlarini tahlil qildik.

Tadqiqot natijalari bolalar va o'smirlar jinoyatchiligining quyidagi motivlari mavjudligini ko'rsatdi:

1. Moddiy va maishiy shart-sharoitga ega bo'lishga intilish, ochko'zlik mazmuniga ega bo'lgan jinoyatchilik xulqi motivi.
2. Do'stlari oldida obro' orttirish maqsadidagi jinoyatchilik xulqi motivi.
3. Qasos, o'ch olish va g'azab asosidagi jinoyatchilik xulqi motivi.
4. O'rtoqlari va kattalarga taqlid qilish asosidagi jinoyatchilik xulqi motivi.
5. Boshqa birovni himoya qilish maqsadida yuzaga keladigan jinoyatchilik xulqi motivi.
6. Boshqa jinoyat turini yashirish maqsadidagi jinoyatchilik xulqi motivi.
7. O'ziga xos sarguzasht qilishga intilish maqsadidagi jinoyatchilik xulqi motivi.
8. O'zini ko'rsatishga intilish (maqтанish) asosidagi jinoyatchilik xulqi motivi.
9. Boshqa kishilarning ta'siri ostida yuzaga keladigan jinoyatchilik xulqi motivi.
10. Anglanmagan jinoyatchilik xulqi motivlari.

Bolalar va o'smirlarda jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik motivlarini o'rganish natijalaridan ma'lum bo'lishicha, sodir etilayotgan jinoyatlarning katta qismi, "Anglanmagan motiv" asosida amalga oshirilayotganligini kuzatish mumkin.

Jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsida asotsiallik, ruhiy beqarorlik, o'zgaruvchanlik, gipertimlik, affektga moyillik, siklotomiklik xususiyatlarining yaqqol ifodalanganligidan kelib chiqib, ular shaxsini sog'lomlashtirishga harakat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda ular yashayotgan oila va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, shaxslararo sog'lom munosabatni vujudga keltirish ishlarini olib borish yaxshi natija beradi.

SHunday ekan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining asosiy sabablari sifatida "bolalar va o'smirlar faoliyatini nazorat qilmaslik", "oilada bola tarbiyasiga e'tiborning susayishi" kabilar namoyon bo'lganligidan kelib chiqib, oilada va oiladan tashqarida bolalar va o'smirlar faoliyatini, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanayotganligini nazorat qilish va oilada bolalar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

TAVAKKAL XULQ – ATVORNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI TA’SIRI

Narzulloeva Salomatbonu Sunatulojevna

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6298934>

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda insonning huquq va erkinliklarini hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini ta‘min etishga ajratilgan huquqiy davlat va ochiq jamiyat barpo etmoqda. Ushbu asosiy vazifani amalga oshirishda eng muhim bo‘lgan masala bu kelajak avlodni davr talabiga mos ravishda ongli, har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash muhammosidir. Darhaqiqat, mazkur muammoni hal etish yo‘lida mamlakatimizda qabul qilinayotgan qarorlar, ulardan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad bunyodkor va ijodiy faol, shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy, siyosiy hayotda mustaqil ravishda o‘z yo‘lini, o‘rnini topa oladigan, istiqboldagi vazifalarni oldindan ko‘ra bilib, ularni hal etishda va mustaqil qaror qabul qilishga qodir bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazishdir.

Prezident SH.M.Mirziyoyev o‘z nutqida shunday deydi: “Har qanday odam ham endigina voyaga etib kelayotgan davrida jamiyatdan munosib o‘rnini topishi kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlariga, ba‘zan esa og‘ir fojialarga, ijtimoiy larzalarga ham sabab bo‘ladi. Yosh yigit — qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o‘z o‘rnini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o‘z qadrini yo‘qotishiga olib keladi. O‘z qadriga, o‘z sha‘niga ega bo‘lmagan inson hayotda ko‘p — ko‘p to‘siqlarga duchor bo‘ladi, salbiy ta’sirlarga beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi”.

YOshlarga ta’sir etadigan salbiy omillar deganda Prezident, shubhasiz, diniy ekstremistik to‘dalar, turli jinoiy guruxlar, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilar yoki narkobiznes bilan shug‘ullanuvchilar kabi ayrim ijtimoiy kuchlar, oqimlar va xulq—atvor shakllarini nazarda tutadi. O‘smir va o‘spirinlar orasida bu kabi nojo‘ya xatti — harakatlarni qilish, ko‘p jihatdan, ularning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularda turli xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri qarorga kela olmaslik, natijalari anglamagan holatlar, tuzatilishi qiyin bo‘lgan xatoliklarga yo‘l qo‘yish hollari kuzatilishi mumki. Bunday xavf — xatarlarga, shiddatli o‘zgarishlarga boy bo‘lgan o‘tish davrining muhim xususiyatlaridan biri **tavakkal xulq** — **atvorning** keskin ravishda namoyon bo‘lishidir. Aynan o‘smirlik davriga xos bo‘lgan anglanmagan tavakkalchilikka tayyorgarlikning kuchliligi ulardagi turli nomaqul ta’sirlarga beriluvchanlik xususiyatining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Binobarin, o‘smir va o‘spirinlarda tavakkalchilikka tayyorlik xususiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish muammosi muhim bo‘lib, ko‘pgina ilmiy — amaliy tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Darhaqiqat K.Star, K.Kumbs, YU.Kozeletskiy va B.Bremer kabi yirik chet el psixolog — mutaxassislari tomonidan tavakkalchilik masalasi keng ko‘lamda o‘rganilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlar tavakkal xulq—atvor xususiyatlari hamda ularni o‘lchash, bashorat qilish, ehtimoliy tavakkal xatti — harakatlarni matematik usulda isbotlab berish doirasida anchagina ilmiy muammolarni hal etilishiga xizmat qiladi.

O‘zbek tilining izoxli lug‘atlarida tavakkalchilikka uzoq muloxaza qilib o‘tirmay, “nima bo‘lsa bo‘lar, yo ostidan, yo ustidan” zaylida qilinadigan harakat deb ta’rif berilgan. Mazkur ta’rifning mohiyatiga e’tibor beriladigan bo‘lsak, “tavakkal” so‘zi insonning o‘ziga xos irodaviy harakatini ifodalashini anglash mumkin. Demak, ba‘zan inson muayyan hayotiy to‘siqlar yoki muammolarga duch kelganida amalga oshiradigan xatti —harakati “tavakkal” deb nomlanadi.

“Tavakkal” so‘zi fe‘lga aylantirib, o‘zbek tilida tez — tez ishlatiladigan tavakkal qilmoq tushunchasi hosil qilinadi. YA‘ni “tavakkalchi” so‘zini psixologik izohlaganda — inson shaxsiga xos bulgan xarakter xususiyati sifatida e‘tirof etilishi mumkin.

Tavakkal xulq — atvor ko‘pincha inson xayotiga xavf tug‘diruvchi vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ba‘zan “xavfli xulq — atvor” tarzida ham ishlatiladi. Bu ikki ibora orasidagi farq shundaki, birinchisi xulq — atvorning tasodifiy ravishda amalga oshirilishiga yoki “ichki ovozi”ga qarab biron — bir xarakterning tanlanishiga ishora qilsa, ikkinchisi bunday xulq insonning hayotiga ma‘lum darajada tahdid solishini, xavf — uyg‘otishini ifoda etadi.

Tavakkal xulq — atvor ko‘rinishlari o‘zbek xalq maqollarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, ijobiy tushuncha sifatida e‘tirof etilgan. Masalan: “o‘ychi o‘yiga etguncha, tavakkalchi ishini bitiradi”. Bu maqolga tavakkalchilik ijobiy xislat sifatida ta‘rif etilgan, ya‘ni tavakkalchilik xozirjavoblik, tez va teran fikrlash sifatlariga mujjassamlashtiradi. “Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyiga kirmoq kerak” maqolida esa ko‘zlangan maqsadga erishish uchun xatarli yo‘llarda yurib, tavakkal qilish kerak degan fikr ilgari suriladi. Bulardan tashqari yana ko‘plab maqollarni keltirish mumkinki, ularda tavakkal qilish, tez, chaqqon xarakter qilish, zarur paytlarda qo‘rqmaslik, jasurlik kabi xislatlar ulug‘lanadi.

Tavakkalchilikning ijtimoiy va kasbiy faoliyatda idrok qilinishi masalasi alohida bir ijtimoiy — psixologik muammoni tashkil etadi. Quyidagi qiziqarli xayotiy vaziyatda tavakkalchilikning turli insonlar tomonidan xar xil tarzda idrok etilishini yaqqol ko‘rish mumkin. Aytaylik, ishlab chiqarish jarayonida baxtsiz tasodif ro‘y berdi va buning natijasida bir inson hayotdan ko‘z yumdi. Jamoatchilik direktorni korxonada o‘lim xavfi mavjudligida aybladi va direktor esa bunga javoban mashina xech qanday o‘limni keltirib chikarmasligini ta‘kidladi. Jurnalist direktorga kuyinib: “Axir, mazkur uskunada ishlayotgan inson halok bo‘ldi” — deb tanbex bersa, direktor: “Bu mashinada xech qanday xavf — xatar yo‘q edi, bu baxtsiz tasodifdan boshqa narsa emas”, — deb javob beradi. SHu vaziyatdan ko‘rinib turibdiki, har bir inson tavakkalchilikni o‘zicha, o‘ziga xos tarzda idrok etadi. Ko‘pgina bu kabi xayotiy vaziyatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, insonlar real vaziyatlarda ikki asosiy o‘zgaruvchi omilni e‘tiborga oladilar. Bular — mag‘lubiyat ehtimoli va mag‘lubiyatdir. Biroq bizning nazarimizda bir vaqtning o‘zida ham shaxsiy ichki, ham vaziyatli tashqi omillar tavakkalchilikni baxolashda real mezon sifatida vujudga keladi .

Psixologlarning ilmiy g‘oyalariga ko‘ra tavakkal xatti — xarakterlarga undovchi bosh omil — kutilgan natijalarga erishish uchun qo‘yilgan maqsadlar sari intilishning sub‘ektivligidir. Boshqacha qilib aytilsa, sub‘ekt faoliyati qanchalik ko‘p kuch g‘ayratni talab qilsa, uning ahamiyati va qaror qabul qilish zarurati shunchalik oshadi.

Sub‘ektning individual va shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, tanlov mezonlariga ta‘sir qiladigan mazkur omillarning alohida guruxi bu, avvalambor, tavakkal qilishga tayyorlikdir. Turli xil insonlar xavfli vaziyatlarda har xil xulq — atvorlarni namoyon qiladilar. Ba‘zilar xatarli vaziyatlarni aniq xis etsalar ham tavakkal qiladilar, boshqalar esa hatto muvaffaqiyat ehtimoli yuqori bo‘lsa ham kutishni yoki boshqa bir paytga qoldirishni afzal ko‘radilar. Demak, tavakkalchilikka tayyorlik bilan boshqa shaxsiy sifatlar va xususiyatlar o‘rtasida muayyan bir bog‘liqlik mavjuddir.

Maxsus tekshirishlardan ma‘lum bo‘lishicha, o‘smirlik davrida boshqa yosh davrlarga nisbatan tavakkalchilikka tayyorlik kuchliroq ifodalangan bo‘lar ekan. Bu esa boshqa yosh davrlarida yoshlar ongining bir pog‘ona yuqori ko‘tarilib, ularda vazmiilik, har ishda

ehtiyotkorlik kabi xususiyatlarning paydo bo'lishi bilan tushuntiriladi. Daliliy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan tavakkalchilikka tayyorlik xususiyati kuchliroq ifodalangan. Bu holatni erkak jinsining inson evolyusiyasi hamda ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o'rni bilan bog'liq ravishda tushuntirish mumkin bo'lsa kerak. Tavakkalchilikka tayyorlik xususiyati shaxsning boshqa xarakter xususiyatlari bilan birgalikda yaxlit voqelik sifatida, ularga bog'liq ravishda yosh ulg'ayishi bilan shakllanib, sayqal topib boradi.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET ADDICTION AMONG STUDENTS

Nozimov Jakhongir Tokhirovich

Master's degree from Bukhara State University

Academic leader: M.N. Usmanova

**Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor. Bukhara State
University**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6298965>

Annotation: We live in an era where the value of high technology is very high. The Internet has become an integral part of our lives. He absolutely conquered all spheres of life. For now, you cannot imagine any mobile device or computer without the Internet. Sometimes you will be surprised at how people lived without them a few years ago and how they became accustomed to it for a short time. The relevance of the topic of this article is that social networks are becoming more and more. To date, they have mastered all the free time of youth and children. In this article, opinions and comments are made about the psychological state of internet dependence among students and young people.

Keywords: Internet, youth, students, psychology, social networks, dependence on Internet, wasted time.

Some scientists seriously deal with the problem of dependence on the Internet and, in particular, dependence on social networks. Every day millions of people spend their free time on the Internet: to search for a job, to get acquainted with new people, to communicate with friends, colleagues, to themselves the necessary information search, to share their knowledge with others and to receive new ones. Now you rarely see young people watching the news. Many have become accustomed to the fact that any information they need can be found on the Internet, and for this they do not need to make a lot of effort. For example, you do not need to go to the library and sort the literature. You can sit at home at the computer with a cup tea, write down what you need in the search field, and the Internet will give you thousands of results. The fact of internet dependence also says that more than half of young people need to access the website at least once a day, and almost a quarter of adolescents access social networks several times a day (from the report).

A person escapes from his problems and goes directly to social networks, where he can forget about it and think of a new life, a new name, "get rid of". Man begins to perceive his "ideal world" as part of reality and does not see the boundaries between them. A person creates his own new image, having loaded himself with qualities that he may not have in life at all. For example, a humble, self-absorbed person in a social network can manifest himself as a friendly, open person. In the Virtual world, a person can show himself as a self-sufficient person who does not need anything, he can meet his spouse, who, as he seems to himself, can be very far away from him. Often, this "virtual image" has nothing to do with the person himself who is looking for what is missing in real life in social networks, so this "ideal life" will be more expensive for him than real.

Many young people cannot do without virtual communication, completely forgetting about communication in real life. Often people can see such a picture on their phones without stopping, for example, in public places, on the street, even when they meet with friends. Over time, a certain reflex develops, a person begins to constantly check his mail in the hope that someone will write to him or visit his page. A person begins to get attached to it. For him it will be important not only to show how he lives, but also to see how others live. Now it's not just for a memorable album, where you can save the important moments of your youth life, but also to place them all on the social network, and then start taking pictures to see who your photos really like and read the reviews of friends and acquaintances. Acquaintances or friends post photos from the wedding, graduation, travel, curiosity begins to prevail, no one wants to miss interesting news, learn something new from the life of friends. Having browsed the photos one by one, one page, the second, the third sheet, the person forgets about the time.

Today there are such "loyal" users who sit Day and night in social networks. In the morning at work or at school, they first go to check their mail, sometimes they spend more time than in the main business. When going home or to work, in the queue, when eating, they use a phone or, for example, a tablet to access social networks. In the evening, returning home, they again sit at the computer, and in the morning everything starts anew. It is worth noting that such people are very fond of lighting their whole life in social networks, that is, with the help of statuses. Statuses change not only according to the type of activity, for example, "eating", "sleeping", "going to work", but also depend on the emotional experiences of this person. The human condition described above is partly reminiscent of dependence on alcohol or, for example, on drugs, from which we can say that dependence on social networks is a disease of young people.

| | | | Ўсим бўйи см | Барг сони дона | Ўсим бўйи см | Дуккак сони дона | Ўсим бўйи см | Дуккак сони дона |
| N ₂₅₀ ,P ₁₇₅ ,K ₁₂₅ | Тупроқнинг ювилиб тушган қисми. | | | | | | | |
| | N ₂₅ ,P ₈₀ ,K ₆₀ | 1 | 27,7 | 6,4 | 46,3 | 6,3 | 48,5 | 29,2 |
| | N ₅₀ ,P ₈₀ ,K ₆₀ | 2 | 28,3 | 6,6 | 48,9 | 5,5 | 53,7 | 24,1 |
| | N ₇₅ , P ₈₀ ,K ₆₀ | 3 | 31,4 | 8,0 | 51,2 | 5,8 | 58,9 | 26,4 |

Олиб борилган тажрибалардан шундай ҳулоса қилиш мумкунки, ирригация эрозиясига учраган тупроқлари ювилиб тушган қисмида такрорий экин сифатида экилган мош экиннинг яхши ўсиши, ривожланиши, дуккаклар сонининг кўпайиши учун табақалаштирилган ҳолда минерал ўғитларни йиллик меъёрларининг N₂₅,P₈₀,K₆₀ кг/га қўллаш самарали эканлиги кузатилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” 53-57.б.
2. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. 3-е издание. Ташкент. 1963. С. 124.
3. Методы агрохимических анализов почв и растений – Ташкент, Мехнат. 1977. С. 128.
4. Халиков Б.М., Иминов А.А. Экиш меъёрлари ва такрорий экинларнинг тупроқ ҳажм оғирлигига таъсири. // Фермер хўжаликларда пахтачилик ва ғаллачиликни

ривожлантиришнинг илмий асослари. Халқаро илмий амалий конференция мақолалар
тўплами. Тошкент, ЎзПТИ-2006. Б-94.

5. www.embrapa.br

BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING O'RNI VA UNDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Kurbanova Shoira Narzullayevna¹

Razzoqova Nosira Baxromqul qizi²

**¹ Buxoro davlat universiteti “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası
o'qituvchisi,**

**² Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi, Buxoro davlat
universiteti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6326077>

Annotasiya:Maqolada barkamol avlodni shakllanishida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullari ochib berilgan. Texnologiya fanini o'qitishda qo'llash mumkin bo'lgan o'yinli texnologiyalar **haqida fikr yuritilgan.**

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, pedagogik yondashuv, ta'lim texnologiyasi, «Zanjir o'yini», «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», «Kichik guruhlarda ishlash»,«Breyn-ring».

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat ham mavjud bo'lgan. Insonni dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi. Yangi tug'ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga yetishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Ta'limning, o'qitishning asosiy vazifasi yoshlarning aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada baxtiyor faoliyat ko'rsatish uchun moddiy ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

Yuqoridagilar jamiyat hayoti barcha jabhalarining muvafaqiyatini belgilab beruvchi, shu bilan ularning poydevori hisoblanuvchi ta'lim-tarbiya sohasiga ham to'laligicha tegishlidir. Respublika Prezidenti ta'lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondoshib, uni quyidagicha ta'riflaydi: —Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi

va yosh avlodga o'tadi. Mas'uliyatli va murakkab bu vazifa, davlatning boshqa tadbirlari qatorida, Respublika Oliy Majlisining 9-sesiyasida qabul qilingan –Ta'lim to'g'risida||gi Qonun –Kadrlar tayyorlash milliy dasturi||ni (1997 yil 29 avgust) ro'yobga chiqarish orqali bajariladi. Bu dasturni tarkibiy qismi sifatida ta'limning yangi modeli yaratiladi. Prezident tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta'lim-tarbiya modelini amaliyotga tadbiiq etish o'quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo'yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- O'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalash.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta'lim usullarinigina qo'llashni maqsad qilgan bo'lsa, hal etib bo'lmaydi. Maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li, bu dars mashg'ulotini loyihalashda integrallashgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Informatika fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning qu-yidagi metodlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Tajribalardan kelib chiqib, quyida Texnologiya fanini o'qitishda samarali qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi o'yinli texnologiyalardan namunalari keltirib o'tamiz:

Breyn-ring. Bu o'yin 2-guruhga kirib, unda har birida 5–6 nafardan o'quvchi qatnashgan jamoalar soni 2 tadan 5 tagacha bo'lishi mumkin. Boshlovchi har bir guruhga qisqa javobli savollar beradi. Agar ishtirokchilardan biri birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu ishtirokchiga beriladi va har bir to'g'ri javob uchun olingan ball to'planib boradi. Agar to'plangan ballni vaqtida o'z jamoasi hisobiga tushirib turmasa va o'yinni to'xtatmay, o'yin davomida noto'g'ri javob berib qo'ysa, o'sha ishtirokchi to'playotgan barcha ballar kuyib ketadi. Demak, qatnashuvchi o'zi istagan paytda o'yinni to'xtatishi va to'plagan ballni jamoa hisobiga tushirishi kerak. Qolgan savollarga endi boshqa ishtirokchilar javob berishi lozim va ular ham o'z jamoalari hisobiga ball to'plash imkoniga ega bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball.

Zanjir o'yini. Guruh 4ga bo'linib, har bir guruhdan 1 o'quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o'quvchi fanga tegishli atamani aytadi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi aytganini va o'zini qo'shib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o'quvchi aytgan atamalarga yana o'zi yangisini qo'shib aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi, adashgan o'quvchi o'yindan chiqadi, eng oxiri o'yindan chiqib ketmay qolgan o'quvchi rag'batlantiriladi. O'yin xotirani mustahkamlashga juda qo'l keladi.

Do'stlar davrasida. O'yin 3-guruhga tegishli bo'lib, talabalarning bir necha nafari topshiriqning turli xil vazifalarini bajaradilar. Ular o'zlarining do'stlari ishtirok etgan davrani topib olishlari kerak. Buning uchun tashqi buyruqlar bir-birini topib olishi kerak. Do'stlar qo'l ushlab davra quradilar va o'zlarini tavsiflab beradilar. Bu o'yin bilimlarni mustahkamlaydi va talabalarda bir-birlariga bo'lgan yordam hissini shakllantiradi.

Kim chaqqon? Guruh ikkiga bo'linib, har bir guruhdan bittadan o'quvchi doska oldiga chiqariladi. Bir o'quvchi fanga tegishli atamani o'zining maydoniga yozadi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi yozmagan qo'shimcha atamani ishlatadi. O'yin shu tariqa davom etadi, adashgan o'quvchi o'yindan chiqadi. Kimning maydonida eng ko'p to'g'ri, mantiqiy bog'langan tushunchalar paydo bo'lsa, shu jamoa g'olib sanaladi. O'yin xotirani mustahkamlashda va takrorlashda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda biz bolani jismoniy jihatdan o'stiruvchi oddiy o'yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo'lgan intellektual o'yinlardan iborat bir qancha o'yinlar «ombori»ga egamiz. Barcha zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishda o'yinlarda o'quvchi o'yin shartlarini tezda o'zlashtiradi va o'ziga belgilangan vazifani qabul qiladi. O'yin qoidalarini bajarish jarayonida o'yinchi o'zining maqbul qarorlarini o'yindagi muammolarni hal qilishda erkin qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy sifatining yaxshilanib borishiga sabab bo'ladi, o'quvchigina kelajakda o'z qobiliyatlarini takomillashtirishi, kasbiy faoliyatida to'g'ri foydalana olishi va albatta komil inson sifatida shakllanishiga imkon yaratadi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Hoshimov, —Pedagogika tarixi|| Toshkent 2005-yil.

2. J.X. Yo'ldashev —Yangi pedagogika yo'nalishlari, muammolari, yechimlari|| . —Xalq ta'lim i|| jurnali, T.,№4 1999-yil
3. K. Ismanova. Amaliy dars mashg'ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. — Ta'lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.
4. RZ Samadovna, KS Narzullayevna, SG Ergashevna (2020). Technology for the development of logical thinking in students in primary school. *Journal of Critical Reviews* 7/6. pp. 485-491.
5. T.M. Mukhamadovna, K.M Djamshitovna, Q.S Narzullayevna (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. *Middle European Scientific Bulletin* vol. 11 pp. 426-430.
6. Kurbanova Sh.N., Toymurodova N. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol. 11 Issue 1, pp.588-596.
7. Sh.N.Qurbonova, F.Abdullayeva (2021). Tarbiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish // *Scientific progress*. 2. №. 6. – С. 1030-1035.
8. Ш.Н Курбанова (2020). Преподавание математики в начальных классах. *European reseach: innovation in science, education and technology*. Vol.11. С. 97-100
9. Sh.N.Kurbanova (2020). Art as a significant factor of forming world outlook of students. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 1/1
10. Sh.N.Qurbonova (2020). Technology for the development of logical thinking in students in primary school. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 1/1
11. Sh.N.Qurbonova (2020). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 1/1
12. Мухидова О.Н. (2021). Инновационные технологии в учебном процессе. *Innovation in the modern education system. Washington, USA: "CESS", Part 2 January*, pp.88-93.
13. Мухидова О.Н. (2020). Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя. *Вестник науки и образования* (№ 19 (97).Часть 2), С.88-91.
14. Muhidova O.N., Alekseeva N.N. (2021). Development of students creative abilities in technology lessons. *International journal for innovative engineering and management research*. Vol 10 Issue 04, pp.188-191.
15. Мухидова О.Н. (2020). Электронное обучение в высшем образовании. *Вестник магистратуры*, 1-5 (100) С.43-44.
16. Muhidova O.N. (2021). Development of students creative abilities. *Euro-Asia Conferences*, 5(1), pp.178–181.
17. О.Х.Узаков, О.Н.Мухидова (2021). Научные исследования: основы методологии *Science and education scintific journal* Vol 2 Issue 12, pp.376-386.
18. О.Н.Мухидова (2021). Texnologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash metodikasining ayrim jihatlari *Science and education scintific journal* Vol 2 Issue 12, pp.782-792.
19. Мухидова О.Н. (2021). Формирование трансверсальных компетенций – приоритетная задача преподавателей высшей школы. *Общество и инновации*. 2, 11/S, С.394–398.

20. Muxidova O.N. (2022). Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish usullari. *Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar* 2, 2/2, С.293-301
21. Muxidova O.N. (2022). Формирование технологической компетентности при использовании наглядных средств на уроках технологии. *Yangi O'zbekistonda milliy taraqqiyot va innovasiyalar* 2, 2/2, С.302-307
22. Мухидова О.Н. (2020). Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак технология фани ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu.uz)* 1/1, С.57-61
23. Мухидова О.Н. (2020). Технология фани ўқитувчиларини тайёрлашда компетенциявий ёндашувлар. *Педагогик маҳорат Центр научных публикаций (buxdu.uz)* 2/2, С.158-164.

ПРОИЗВОДСТВЕННЫЙ РОМАН. ТЕОРИИ И ПРОБЛЕМЫ ЖАНРА

Нематуллаева Камилла Ахмадовна

Студентка 2 курса магистратуры, факультета английской литературы
в УзГУМЯ

Руководитель: Лиходиевский Анатолий Степанович

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6326302>

АБСТРАКТ: В этой статье говорится о термине “производственного романа” и его различии с романом о производстве. Развитие данного жанра в России и писатели, оказавшие влияние на данное течение

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: производственный роман, тема труда, рабочая тематика, историзм, человек труда

“Для человека нет ничего естественней труда, человек рождён для него, как птица для полёта и рыба для плавания.”

Ф. Петрарка

Производственный роман — это литературное произведение, в котором основное внимание уделяется работнику, который профессионально решает производственные задачи, с которыми он сталкивается. ¹Таким образом Н.Л. Лейдерман определили его как “жанр,

в котором человек рассматривается прежде всего в свете его рабочих функций”.

Большинство ученых полагают, что производственный роман является прямым потомком натуралистического романа: наряду с построением промышленного общества возникла необходимость в литературе, описывающей такие качества человеческого существования, как “труд” и “производство”. Выделяя производственный роман как самостоятельный жанр из похожих литературных стратегий, можно опираться на две жанрообразующие особенности: тему труда как содержательную основу и образ человека трудящегося как художественную доминанту.

Основателем этого жанра был французский писатель и инженер Пьер Ампер, который еще в начале XX века явился автором серии романов “Человеческие страдания”, посвященных работникам различных профессий. Ему также принадлежит авторство термина “производственный роман”. Первый “канонический” и “программный” производственный роман в России назывался “Цемент” Ф.Гладкова (1925). Верхний предел упадка жанра можно отнести к 1970-м и 1980-м годам, но он остается спорным. По сей день, многими людьми путается понятие производственного романа и романа о производстве, что на первый взгляд может казаться очень смежными понятиями, и которые в свою очередь представляют собой абсолютно разные явления. В «романе о производстве» говорится в основном о человеческих характерах, судьбах, конфликтах, развивающихся на фоне производства и действия могут происходить в абсолютно

1

Н. Л. Лейдерман. Русская литература XX века: 1917—1920-е годы : в 2 кн. — М.: Академия, 2008. — Т. Кн. 1. — С. 30. — ISBN 978-5-7695-6990-6.

разных местах (как на производстве, так и на войне). «Производственный роман» – само по себе производство становится главным персонажем произведения. Перед писателем стоит цель не столько изобразить индивидуальные личности, особенности их характера и взаимоотношений в социуме сколько показать производство как единый механизм, в котором одновременно, существуют многие персонажи, пересекаются различные человеческие судьбы, параллельно происходят различные события. Одновременность всего происходящего – главная отличительная черта «производственного романа». Тут важен процесс происходящего, который в свою очередь складывается из отдельных описаний, историй, происшествий. Иными словами, «производственный роман» можно сравнить с мозаикой, в который невозможно увидеть цельную картину не собрав все части пазла в единое.

История развития жанра в СССР

В направлении производственного романа было создано очень большое количество произведений, однако художественностью и новизной отличалась всего лишь малая часть произведений, созданных профессионалами слова, у которых в целом творчество представляет собой высокую степень профессиональности и таланта. Станным и можно сказать, что даже парадоксальным образом успех производственного романа по времени произошел в тот же момент когда он и появился на свет а если быть точнее, то в 20-30 годы тематика труда показывает себя в роли литературного эксперимента. В последствии, вплоть до 60-х XXв производственный роман явился "визитной карточкой" литературы советского союза, одним из основных жанров соцреализма. Таким образом А. М. Горький на 1 съезде советских писателей в 1934 утверждал, что одним из основных героев данных в то время книг им следовало избрать труд, а именно человека, окруженного процессами труда, и личность, в свою очередь, организующего труд наиболее легким, продуктивным, возводя его в степень искусства" ²И. М. Нусинов в своем труде " Вопросы данного жанра в пролетарской литературе" отметил направление производственного романа в роли одного из самых основных направлений в развивающейся советской литературе, призванной показывать этап создания новейшего социалистического производства". ³В. М.Фриче говорил, что производственный роман наилучшим образом соответствует наиважнейшему для тех времен "образу пролетариата" как "класса-строителя". И все же Фриче отрицал довольно-таки нужные части романного повествования, такие как любовные отношения и все что связано с психологией. И не обращая внимания на важность и нужность этого направления в литературе СССР, в Литературной Энциклопедии 1935г-1938имеется не маленькая статья о "пролетарской литературе", и нет ни единого упоминания о "производственном романе". Раннее производственные романы отличались приёмами и формами, которые были характерны больше для журналистики, и совсем не подходили художественной литературе. Очень

² Нусинов И. Вопросы жанра в пролетарской литературе // Литература и искусство. — 1931. — № 2—3. — С. 27—43.

³ В. Фриче. К вопросу о повествовательных жанрах в пролетлитературе // Печать и революция. — 1929. — № 9. — С. 8—11

частым приёмом при создании похожих произведений в СССР была необходимостворческая командировка писателя на производство или даже стройку, которые играли важнейшее значение для превращение СССР в индустриализированное общество. Роль пропаганды и публицистики которой отводилась огромнейшая роль в идеологии советской литературе, отражалась не только на форме, а также и на содержании самой литературы. У писателя Валентина Катаева в его работе "Время, вперёд!" трудящиеся проводят дни и ночи на стройке, и забывают даже о базовых нуждах, таких как еда; в произведении ⁴"Цемент" Фёдора Гладкова - герои отрекаются от своего счастья, и теряют дорого человека, дочь, ради превращения страны в промышленное общество, ради индустриализации; и в романе этого писателя "Энергия" один из героев погибает на своей работе прямо на виду у заграничной делегации. Для романов в сфере производства того периода было свойственно очень сильное чувство коллективизма и узко-профильный взгляд на личность, которая нередко просто вытеснялась далеко за границы романного произведения. М. М. Кузнецов в 1954 писал, что самым основным героем является конвейер, но не работник, не человек. Многие писатели того периода писали в жанре производственного романа только из личностных соображений, так как это давало своеобразную гарантию того, что власть того времени будет относиться к ним благосклонно, что в свою очередь вело в материальное благополучие и собственной безопасности. Научная и в то же время фантастическая работа Александра Беляева "Подводные земледельцы" тоже была написана в стиле тех времен, по правилам производственного романа, который включал вредителей и обращался к ним как к врагам народа.

Список литературы

1. Нусинов И. Вопросы жанра в пролетарской литературе // Литература и искусство. — 1931. — № 2—3. — С. 27—43.
2. Н. Л. Лейдерман. Русская литература XX века: 1917—1920-е годы : в 2 кн. — М.: Академия, 2008. — Т. Кн. 1. — С. 30. — ISBN 978-5-7695-6990-6.
3. В. Фриче. К вопросу о повествовательных жанрах в пролетлитературе // Печать и революция. — 1929. — № 9. — С. 8—11
4. Гладков Ф. Цемент. Собр. соч. в 8 тт. Т. 2. М.: Гос. изд-во художественной литературы, 1958.
5. Горбатов Б. Донбасс. М.: Гос. изд-во художественной литературы, 1954.
6. Горбачёв Н. Дайте точку опоры. М.: Современник, 1979.
7. Горбачёв Н. Ударная сила. М.: Современник, 1979

⁴ Гладков Ф. Цемент. Собр. соч. в 8 тт. Т. 2. М.: Гос. изд-во художественной литературы, 1958.

INGLİZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TEMPORAL SINTAKSEMALARNING ADVERBIAL VARIANTLARI

Sunnatova Maftuna Akbar qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6362645>

Annotatsiya: hozirgi zamon tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri va, bizningcha, eng muhimi “eng kichik kommunikativ til birligi” bo‘lmish gapning tabiatini mufassal o‘rganish va shu asosda tilning umumiy nazariyasini va tilning tafakkur bilan munosabatini bilishga yordam beruvchi umumahamiyatga molik bo‘lgan nazariy tizimni yaratishdir. Tillarning tipologiyasini o‘rganish faqatgina har xil strukturaga va alomatlariga ega bo‘lgan barcha tillarning tipologik klassifikatsiyasini yaratish bilan birga ularning asosiy glottogonik (kelib chiqish) tarraqqiyotini ham aniqlashga yordam beradi. Mazkur maqola Ingliz va o‘zbek tillarida temporal sintaksemalarning adverbial variantlari haqida so‘z yuritadi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, adverbial variantlar, ravishdosh, sintaksema, birlik.

Hozirgi zamon tilshunosligining muhim va asosiy bir qismi hisoblanuvchi tillar tipologiyasi hozirgi lingvistik tadqiqotlar ichida katta o‘rin egallaydi, chunki u jonli, faktik materialga asoslanib, u yoki bu hodisaning tabiatini aniqlashga xizmat qiladi. Dunyodagi barcha mavjud tillarning tipologiyasini o‘rganish, turli tizimga mansub tillarning o‘xshash va farqli jihatlarini tekshirish tipologiyasi va barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan universal konstantlarni aniqlash masalalari tilshunoslar oldiga konkret tillarning tipologiyasi va ularni qiyosiy-tarixiy jihatdan guruhlarga bo‘lish vazifasini qo‘yadi. Hozirgi zamon tilshunosligida turli strukturadagi tillarni qiyoslashga asoslangan grammatik tadqiqotlar tillarda mavjud bo‘lgan barcha ahamiyatga molik bo‘lgan xususiyatlarning hammasini qamrab ololmaydi, va shu tufayli, boshqa ko‘pgina o‘rganilayotgan tillardagi xususiyatlardan kelib chiquvchi yangi yo‘nalishlarga asoslanishi talab qilinadi. Faqatgina har bir konkret tildagi yoki qardosh guruh tillaridagi tipologik alomatlarini aks ettirish orqali tadqiqotchi har xil tizimdagi tillarni tipologik qiyoslash, ulardagi universal va urg‘u berilishi lozim bo‘lgan alohida xususiyatlarni aniqlash mumkin. Biror tildagi faktlarni boshqa sistemadagi til bilan struktural-tipologik qiyoslash ko‘pincha tildagi hodisalarning alomatlarini to‘g‘ri aks ettirishga to‘sqinlik qiladi. Bunga misol qilib, hozirgi turkiy tillar grammatikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda sifatdoshli o‘ramlar kategoriyasini ergash gaplar bilan qiyoslab, ularning faqat ma‘no jihatdan to‘g‘ri kelishini va bir-biriga sinonim deyishlarini ko‘rsatish mumkin.

Konkret tillarni va qarindosh tillarni tadqiq etishda ularning tipologik xususiyatlarini aniq belgilash tilshunoslikning umumiy masalalarini, xususan, til va tafakkurning aloqasini, tilning kelib chiqishini, umumiy tipologik universalialarni aniqlashni talab qiladi. Hozirgi tilshunoslikda barcha yo‘nalishlar uchun bir xil va umumiy bo‘lgan, asosan struktura va model, bosqich va yarus, sistema, grammatik va leksik kategoriya, shakl, format va hokazo uchun lingvistik terminologiya bir xil bo‘lmagani tufayli, bu asosiy tushunchalarning asl ma‘nosi va ularga to‘g‘ri keluvchi terminlarni ushbu tadqiqotda belgilab o‘tish lozim ko‘rinadi.

Struktura – kichik tizimlar va sistemalar yoki ularning yig‘indisi aloqasining tarixiy shartlangan birligi bo‘lib, u tilning yoki ayrim til birliklarining (gaplar, so‘z birikmalari,

soʻzlar) qurilish arxitektonikasini xarakterlaydi. Tilning strukturasi tildagi barcha bosqichlarning aniq va tartibli oʻzaro bogʻlanishini koʻrsatuvchi farqlanish belgilarining yigʻindisida aks etgan barcha elementlar va ularning birbiriga munosabatini oʻrganadi. Gapning morfologik strukturasi soʻzning barcha elementlari va ular oʻrtasidagi munosabat bilan izohlanuvchi farqlanish elementlari yigʻindisida aks etgan tarixiy shartlangan birlikdir. Model eng konkret dan eng abstraktgacha boʻlgan har xil pogʻonadagi biron til strukturasi, uning biror bosqichida yoki tilning u yoki bu bosqich mikrostrukturasi umumlashirishdagi tipologik tahlil birligidir.

Tilning modeli, sintaktik, morfologik, fonologik, leksik strukturasi modelini, gap, soʻz birikmasining modeli, soʻzning morfologik, leksik, fonologik strukturasi modelidir. Tilning bosqichi va yarusi til strukturasi shartli ravishda analitik boʻlinish tomonidir. U tilning asosiy kichik strukturasi dan biri boʻlib, bir-biri bilan oʻzaro maʼlum bogʻlanish va ierarxiya munosabatida organik bogʻlangan farqlanish belgilarining funksional qonuniyatlarini izohlaydi: sintagmatik yoki sintaktik bosqichi, morfema va morfologik bosqichi, semiotik yoki semasiologik bosqichi, fonemik yoki fonologik bosqichi ayrim holatlarda feʼlli va sifatli murakkablashuv oʻzaro oʻrin almashtirishlari yoki birlikda ishlatilishi mumkin. Vositasiz toʻldiruvchining murakkablashuvi muayyan semantikaga mansub feʼllardan soʻng infinitiv, sifat, holat kategoriyasiga mansub soʻzlar yoki predlogli guruhlarning toʻldiruvchi vazifasida kelishi bilan yasaladi. Toʻldiruvchi bilan uning murakkablashuvi oʻrtasida ikkilamchi kesimlari munosabatlari kuzatiladi. Bu xususiyat koʻrib chiqilayotgan konstruksiyalarini aniqlashda eng muhim belgi hisoblanadi. A.Gʻ.Gʻulomov fikricha “Sintaktik munosabatlarni ifodalashning asosiy yoʻllari toʻrt xildir, yaʼni: soʻz shakllari, yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi va intonatsiya orqali ifodalash.” (2,18)

A.Sodiqov sintaksis atamasini ikki xil maʼnoda qoʻllaydi:

1. Tilning sintaktik qurilishi maʼnosida;

2. Tilning sintaktik qurilishini oʻrganadigan grammatikaning bir qismi maʼnosida. Baʼzi tilshunoslar sintaksisning predmeti deb faqat gapni tan oladilar. Ularning fikricha, sintaksis, birinchi navbatda, tilning kommunikativ birligi – gapni, gapning turlarini, ularning shakli va mazmuni, gapni boʻlaklarga ajratish masalasini va sintaktik vositalarni oʻrganadi. (3, 175-176)

Maʼlumki, gap sintaksisning asosiy oʻrganish obʼekti hisoblanadi. Gaplarni tasniflash boʻyicha tilshunoslar oʻrtasida turlicha yondashuvlar mavjud. E.Krayzingning fikricha, sintaksis grammatikaning gap qurilmasini oʻrganuvchi bir boʻlimi sifatida olib qaraladi va unda gap tarkibida ishtirok etgan birliklar ikki guruhga ajratiladi: *Close syntactic groups* va *loose syntactic groups*. *Close syntactic groups* morfologik jihatidan verb groups, noun groups, adjective groups, adverb groups, preposition groups, pronoun groups kabilarga ajratib oʻrganishni tavsiya etadi. *Loose syntactic groups* esa ikki xil boʻlishi mumkin: *Linked groups* va *unlinked groups*: *linked group is five and twenty*; *unlinked group-a low soft breathing*. Bundan tashqari, ushbu guruhlarda ishtirok etgan aʼzolarining sonini koʻrsatish bilan chegaralanadi: *double*, *triple*, *quadruple* va hokazolar.

Demak ingliz tilida uchraydigan bir tarkibli gaplar oʻzbek va rus tillaridagi bir tarkibli gaplarning turlaridan farq qiladi.

Ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh oʻramlar qatnashgan sodda gap tarkibidagi mazmunlar qoʻshiluvda ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat bilan asosiy

propozitsiyadagi harakatning bir paytda sodir boʻlganlik maʼnosidan iborat qoʻshimcha maʼno ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Adolat went to the spring with her instrument on her shoulder. Adolat ketmonni yelkalab, buloq boshiga bordi (I.Rahim). Ayrim hollarda ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh oʻramning predikativ boʻlagi boʻlgan ayni ravishdosh feʼlning analitik shaklidan yoki hozirgi zamon shaklidan shakllanganda birmuncha boshqacharoq qoʻshimcha maʼno ifodalanadi. Ikkinchi darajali predikatda ifodalangan harakat davomli boʻladi, asosiy predikatda ifodalangan harakat esa mazkur davomli harakat "ichida" bajariladi. Shuni ham aytish mumkinki, bunda ikkinchi darajali predikatning asosiy predikatga tobeligi birmuncha kuchsizlanadi va ayni paytda uning umumiy subʼekt (gapda ega shaklida ifodalangan)ga tegishliligi, u bilan aloqadorliligi yana ham boʻrtib koʻrinadi. Masalan: Drying her hands in the towel, Saltanat looked out of the kitchen window. Saltanat qoʻlini sochiqqa arta turib, oshxona derazasi orqali tashqariga qaradi (OʻUsmonov). Bunday gaplardagi propozitsiyalarning qoʻshiluvini ayni propozitsiyalar oʻrtasidagi sabab-oqibat aloqasidan iborat qoʻshimcha maʼnoni aks ettirishi mumkin. Bunda ayni propozitsiyalarning aloqasi benihoya zich boʻladi, ular bir- 48 birini hamisha taqozo etadi. Zero, sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab mantiqan boʻlishi mumkin emas. Ikkinchi darajali predikatsiyali ayni ravishdosh oʻramlar sabab mazmunli propozitsiyani ifoda etadi va bu propozitsiya asosiy propozitsiyani keltirib chiqaradi, uning voqe boʻlishi uchun sabab boʻladi. Shuning uchun ham ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat (holat va sh. k.) asosiy propozitsiyadagi harakat (holat va sh.k.)dan oldin amalga oshadi. Masalan: Aziz, irritated by this weep, can't sleep on the balcony even in summer. Aziz shu yigʻidan bezib, yozda ham balkonda yotolmaydi (OʻUsmonov).

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Daniyeva M.J. Ingliz tilida otli soʻz birikmalarining derivatsion-funksional va matn shakllantirish xususiyatlari. Nom.diss.avto-ref., Samarqand,2012.
2. Dean Stoddard Worth, Transform analysis of Russian instrumental constructions "Word", vol.14,Nº2-3, New York, 1958, p247-290.
3. Fernald J. English Grammar Simplified. New York,1963.
4. Francis W.N. The Structure of American English, New York, 1998.
5. Fries Ch.The Structure of English, New York,1956.
6. Gʻulomov A., Asqarova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent, 1987.
7. Gordon E.M., Krylova I.P. A Grammar of Present Day English. Moscow, 1974.
8. Guziyva K.A. Kostigina S.I. The Infinitive, English Grammar. СПб, 2000. 29. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, II tom. Sintaksis. T., 1966, 119-bet

DIQQAT BARQARORLIGI VA DIQQAT BUZILISHLARI HAMDA UNING BELGILARI

Pardayeva Maftuna Baxtiyor qizi

Temiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar

Fakultiteti Amaliy Psixologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6362706>

Annotatsiya: Ushbu maqolada diqqat haqida umumiy tushuncha, diqqat barqarorligini taminlovchi omillari, diqqat buzilishlarining turlari va uni qanday bertaraf etish yollarini keltirib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Diqqatning inertligi, simultan, konsentratsiya, aprozeksiya

Biz dunyoga kelganimizdan boshlab olamga teran nigoh bilan qarab, har bir ovozga, qimirlagan bizga notanish narsalarga u nima ekanligini bilish uchun bor diqqatimizni qaratamiz va shu zayilda olamni tanishni boshlaymiz. Boshida qiziquvchanligimiz hamda begona narsalarning barchasini bilishga harakat qilganimiz tufayli diqqatimiz beqaror, tez bo'linuvchan bo'ladi bu aynan bolalik chog'larimizga to'g'ri keladi, biz buni psixologiyada Ivan Pavlovich Pavlov tabiri bilan "bu nima gap" refleksi deb ataymiz. Yosh davrlar xususiyatidan kelib chiqqan holda bu diqqatning bolalarga xos holatidir.

Xo'sh, diqqat deb o'zi nimaga aytiladi?

Psixologiya fanida har xil ta'rif beriladi, uni izohlashda esa psixologlar turli nazariyalarga asoslanadilar.

Diqqat – bu ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan obektga aktiv (faol) qaratilishiga aytiladi Ivanovning fikricha biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qilgan har bitta narsa, o'y, fikr va rejalarimiz hamda har bitta qilgan ishimiz va hodisalar diqqatning obekti bo'la oladi. Shuni aytish joyizki diqqat vujudga kelishida ong bir nuqtaga to'planadi hamda bu ong doirasining torayishini vujudga keltiradi. Bunday torayish natijasida ong doirasi yanada yorqinlashadi. Agarda miyani ko'rish imkoniyati paydo bo'ganda huddi shu jarayon vaqtida miyamiz ichida kichkina nurlarni uning markazida kattaroq nurni ko'rishimiz mumkin edi. Olim I.P.Pavlov fikri bilan aytganda biror bir yangi g'oya tug'ilayotgan yoki yaratayotgan inson miyasini kuzataigan bo'lganimizda kichkina bir yorqin nurning u yoqdan bu yoqqa yurganini ko'rgan bo'lardik.

Diqqat bo'inuvchanlik xususiyatiga egadir, diqqatimizni yo'naltirayotgan obektga maksimal 3-5 daqiqa qarata olishimiz mumkin shu orada diqqat bir va undan ko'p marta bo'linishi mumkin bu jarayonni biz sezmay ham qolamiz. Simultan bo'linish diqqatning barqaror ishlashiga yordam beradi.

Ayrim odamlarning fikri tez chalg'iydigan bo'ladi – bu diqqat barqarorligi yetishmasligi bilan bog'liq holatdir. Diqqatning ma'lum vaqt oralig'ida saqlanishi diqqatning barqarorligi deb ataladi. Agarda biror bir mashg'ulotga e'tibor bilan kirishilsa ushbu jaraoyon kuzatiladi. Bu xususiyat inson qiziqishlari va kasbiga bog'liq ham bo'ladi. Shuncha vazifalarni uddalashda diqqatning faqatgina o'zi emas boshqa kognitiv jarayonlar ham qatnashadi. Aytish mumkinki, diqqatning barqarorligi har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning eng muhim shartlaridan biridir. Ushbu bilish jarayoni insonning atrofdagi borliqni va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni idrok etish jarayoni ravshanlashtiradi. Diqqatning barqarorligi – bu

diqqatning konsentratsiyaning davomini bilgilaydigan xususiyat hamdir. Bundan xulosa qilib diqqatning bir joyga to'planishida diqqat barqarorligi yetakchi rol o'ynaydi deyish mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, qabul qilingan ma'lumotlarning ishlashi va hajmini asosan ushbu omil belgilaydi. Diqqat qanchalik barqaror bo'lsa faoliyat natijasi ham shunchalik samarali bo'ladi. Diqqatning barqaror yoki beqaror diqqat turiga kirishini tartiblab belgilab beruvchi birorta ham me'yor, ko'rsatkich yo'q va bunday omillarning bo'lishi ham mumkin emas. Bu vazifani diqqatning turi – ixtiyoriy, ixtiyorsizligiga qarab, bajarilayotgan ma'lum bir faoliyatning mazmun va natijasiga qarab turli xil baho berish mumkin.

Diqqatning barqaror bo'lishi bir qator shartlarga: diqqat obektining mazmundorligiga, faoliyatga, ish bajarilayotgan vaziyatga, odamning ruhiy holatiga va albatta, irodasi va qiziqishlariga bog'liq.

Agarda diqqat obekti qanchalik mazmundor bo'lsa, diqqat ham shunchalik kuchli va barqaror bo'adi. Diqqatning barqarorligi iroda kuchi bilan ham o'lchanadi ko'pincha, ixtiyorsiz (irodaviy) diqqatning barqarorligi ham faoliyat jarayonida irodaning kuchi bilan ushlab turiladi. Iroda kuchimiz hamda qiziqishlarimiz uyg'unligida eng qiyin vaziyatlarda ham o'z faoliyatimizga diqqatimizni jamlab tura olamiz. Diqqatning rivojlanishi xususida L.C.Vigotskiy balalarda barqaror diqqat sust rivojlanganligini keltirib, bu ixtiyorsiz diqqat sifatida namoyon bo'ladi deb tushuntiradi. Bu jarayon 4,5 – 5 yoshga qadar saqlanib qoladi va bola uchun normal holat sanaladi.

Bizning tayanch qismimiz hisoblanmish diqqat doim ham biz istagandek va bir xil ishlayvermaydi, unda ham ayrim buzilishlar sodir bo'ladi.

1. Parishonxotirlik – diqqatning cheklangan obektlariga uzoq vaqt mobaynida qaratilib turilishining buzilishi. Bu buzilish asosan charchaganda, astenik xolatlarda kuzatiladi.

2. Olimning e'tiborsizligi (soxta parishonxotirlik) – diqqatni o'z xayollarida jalb bo'lishi. U biron bir g'oya bilan band bo'lgan, o'z kechinmalariga berilgan kishilarda kuzatiladi. Bu xolda bunday kishilar atrofidagi narsa, e'tibor bermaydilar. Ichki diqqatni yuqori intensivligi va qiyin o'zgarishi bilan belgilanadi

3. Qarilik parishonxotirliigi – diqqat jamlashning sust intensivligi ko'chuvchanligining qiyinlashishi bilan belgilanadi.

4. Diqqatning chalg'ishi – diqqatning kuchi qobiliyati meyoridan ortib ketadi, buning natijasida bemorlar hech narsaga uzoq vaqt diqqatlariniqarata olmaydi.

5. Diqqatning inertligi – diqqatning patologik fiksatsiyasi, diqqatning bir obektdan ikkinchisiga o'tish mexanizminig buzilishi.

6. Aprozeksiya – diqqatning butunlay yo'qolib ketishi

Xulosa. Barcha narsaning kaliti takrorlash hamda mashqlantirish bo'lgani kabi bizning miyamizga o'tadigan barcha bilimlarning kaliti hosoblanadigan diqqatimizni ham doim mashqlantirib tursak bunday buzilishlarning ma'lum miqdorda oldini olgan bo'lamiz. Bunday kuchli buzilishlarning oldini olish hamda diqqat barqarorligini taminlashda bir necha xil usullardan foydalansak bo'ladi. Masalan, aylanadan tashqariga chiqmasdan bo'yash- bu boshlang'ich kichik usul hisoblanadi, ammo diqqat barqarorligini ta'minlashda va diqqat buzilishlarning oldini olishda ma'lum miqdorda samara bera oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. I.P.Pavlov "Umumiy Psixologiya" Toshkent – 2008
2. "Umumiy Psixologiya" o'quv qo'llanmasi

3. Arxiv.uz
4. Vikopediya
5. Ziyoz.uz.com
6. G'oziyev.E.G', Muhammedova.D.G', Ilhomova.D.I, Rasulova.A.I, Mallaboyeva.N.M "O'quv qo'llanmasi" Toshkent – 2008
7. E.G'.G'oziyevich "Umumiy Psixologiya"